



O'ZBEK TILIDA TINISH BELGILARINING ISHLATILISHI



O'ZBEK TILIDA TINISH BELGILARINING ISHLATILISHI



**Toshkent
«MUMTOZ SO'Z»
2016**

**UO'K: 811.512.133
KBK 81.2(O'zb)**

Tinish belgilarining ishlatalishini tartibga solishga mo'ljallangan ushbu qo'llanma o'zbek tilida yozma nutq va savodxonlikni oshirish hamda ish hujjalaring to'g'ri va tartibli tuzishga yordam beradi. Kitob hozirgi o'zbek adabiy tilida mavjud tinish belgilari (nuqta, so'roq, undov, vergul, ko'pnuqta, nuqtali vergul, ikki nuqta, tire, qavs, qo'shtirnoq)ning qaysi o'rnlarda ishlatalishi yuzasidan ma'lumot berishga qaratilgan. Har bir tinish belgisi alohida mavzu sifatida yoritilgan. Tinish belgilari uchun keltirilgan misollar, albatta, umumta'lim maktablari hamda akademik litseylar va o'rta maxsus kasb-hunar kollejlari uchun darslik sifatida chop etilgan kitoblardan olingan.

Kitobdan umumta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, oliy ta'lim muassasalari ona tili va adabiyoti fani o'qituvchilari hamda o'quvchilari, shuningdek, o'zbek tilida ish yurituvchi barcha tashkilot va idoralar xodimlari foydalanishlari mumkin.

Tuzuvchi: Hamza ALLAMBERGENOV

Mas'ul muharrir:

E.Xo'janiyozov

Nukus DPI O'zbek tili kafedrasi dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi

Taqrizchilar:

Sh.Yuldasheva

Nukus DPI O'zbek tili kafedrasi katta o'qituvchisi,
pedagogika fanlari nomzodi;

S.Matyakupov

Nukus DPI O'zbek adabiyoti kafedrasi mudiri,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

F.Bobojonov

Qoraqalpoq Davlat universiteti O'zbek tilshunosligi
kafedrasi mudiri, filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

Mazkur uslubiy qo'llanma Ajiniyoz nomidagi Nukus DPI Ilmiy-uslubiy kengashining 2016-yil 30-yanvardagi majlisining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan (7- sonli bayonnomaga).

ISBN 978-9943-4552-7-6

© "MUMTOZ SO'Z", 2016
© H.ALLAMBERGENOV (Tuzuvchi), 2016

SO‘ZBOSHI

Yozma nutq madaniyati va savodxonlikni ta’minlashning asosiy shartlaridan biri – yozuvda imlo qoidalariiga qat’iy amal qilish, gap va matn tuzish me’yorlariga rioya qilish hisoblanadi. Ammo gap va matn qurilishi tizimiga ishoraviy belgilarsiz na mazmun-mohiyatni, na mantiq talablarini to‘la yuzaga chiqarish, ifodalash nihoyatda mushkul ish. Shu sababli ham har bir ongli inson, o‘quvchi va talabalar ishoraviy belgilar, ya’ni tinish belgilarining ishlatalish qoidalari mukammal bilishi, o‘z ona tilida (boshqa tillarda ham) xatosiz, madaniy nutq qoidalariiga asoslangan holda o‘z fikrini ifodalay olishi asosiy shartlardan hisoblanadi. Hozirgi davrda mamlakatimizda o‘quv yurtlariga kirish imtihonlari, o‘quvchilar va talabalar bilimlarini nazorat qilish uslublari ham test savollari asosida olib borilayotganligi har bir kishidan tinish belgilari qo‘llanilishi qonun-qoidalariini puxta bilishni talab qilmoqda.

Shuni ham qayd qilish kerakki, o‘zbek tili yozuv tizimida imlo qoidalari bir necha bor qabul qilingan (1929, 1940, 1956, 1995). Ammo o‘scha qabul qilingan imlo qoidalaring birortasiga ham tinish belgilarining qo‘llanilish qoidalari ilova qilinmadi. Bu ham yozma nutqda tinish belgilarini qo‘llashda qaysi asoslarga tayanish kerakligi masalasini mushkullashtiradi. Shu sababli ham bosma axborot nashrlarida tinish belgilarini qo‘llashda har xillilik ko‘zga tashlanadi, ya’ni yakdillik yo‘q. Nihoyat, shu kamchiliklarni hisobga olgan holda yetakchi olimlar „O‘zbek tili punktuatsiyasining asosiy qoidalari“ loyihasini matbuotda e’lon qildilar („O‘zbek tili va adabiyoti“ jurnalining 2015- yil 1- soni, „Ma’rifat“ gazetasining 2015- yil 1-, 4-, 8-, 11-aprel sonlari). Ko‘pdan utilgan bu xayrli ish o‘z nihoyasiga yetib, ular qonun va qoidalalar sifatida tasdiqlansa, jamoatchilikni adashtirayotgan ko‘pgina noaniqliklarga barham berilgan bo‘lardi.


Mazkur qo'llanma muallifi ham ushbu chalkashliklarga aniqlik kiritish, maktab va akademik litsey o'quvchilari, kasb-hunar kollejlari talabalari savodxonligini oshirish, ular tajribalaridagi punktuatsiya masalalaridagi noaniqliklarni bartaraf qilish maqsadida tinish belgilarining qo'llanilishi bo'yicha ushbu qo'llanmani tuzishni maqsadga muvofiq deb topgan. Qo'llanmaga kiritilgan qoidalar maktab, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari darsliklarida berilgan tinish belgilarining qo'llanilishiga doir qoidalarni to'plab, yagona bir tizimga solish asosida yaratilgan. Bu turli dasrliklarda tarqoq holda bayon qilingan qoidalarni o'zlashtirishga nisbatan yaxlit holda o'quvchilarga osonlik tug'dirish maqsadida amalga oshirilgan. Misollar ham mazkur darsliklardan tanlangan. Ma'lumki, o'zbek tili qadimiy yozuv an'anasi ega bo'lgan tillardan biridir. Ammo barcha yozuv turlarida ham punktuatsion qoidalar hozirgi yozuvimizdagidek mukammallik kasb etmagan. Hozirgi punktuatsion qoidalar XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab asta-sekinlik bilan shakllana bordi. U hozirgi holatiga yetguncha ancha noaniqliklarni bosidan kechirdi. Ammo shunday bo'lsa ham, punktuatsiya masalalari bilan shug'ullangan olimlar uning nazariy va amaliy masalalari bo'yicha suyangudek ilmiy va amaliy asoslar yaratishga muvaffaq bo'ldilar. Bularga Fitrat, S.Ibrohimov, H.G'oziyev, O.Usmonov, G'.Abdurahmonov, K.Nazarov va boshqalarning bu sohaga tegishli ishlarini ko'rsatish mumkin. Muallif ushbu olimlar asarlarini tanqidiy o'rganish asosida o'z fikrlarini bayon qilgan va har bir tinish belgisini izohlashda ulardagi ilg'or fikrlarga suyangan.

Qo'llanmada o'zbek tili yozuv tizimida hozirgi davrda faol qo'llanayotgan o'nta tinish belgisi va ularning qatorlashib kelgan holatlariga doir qoidalar berilgan. Har bir ishoraviy belgiga bag'ishlangan qoidalar sodda, ravon, tushunarli tilda bayon qilingan. Ularga xos qoidalar darsliklardan, badiiy va ilmiy asarlardan olingan xarakterli misollar bilan asoslangan.

O‘zbekiston taraqqiyotining hozirgi davrida xalq ta’limi sohasida, o‘qitish-o‘rgatish ishlarida, ma’naviy-ma’rifiy jabhalarida sifat bosqichiga ko‘tarilishdek mas’uliyatli vazifalar turibdi. Har bir darslik, qo‘llanma, uslubiy ko‘rsatmalar bu ishlari-mizning olg‘a siljishiga yordamlashsa, kelajak avlodni komil insonlar qilib tarbiyalashga, xalqni savodxon, ma’rifatli, yuksak fazilatli kishilar qilib yetishtirishga hissasini qo‘shta, o‘zining tarixiy vazifasini to‘la ado etgan bo‘ladi. Qo‘limizdagi ushbu qo‘llanma ham bu sohadagi xayrli ishlarning debochasi sifatida yosh avlodga mukammal ta’lim-tarbiya berishga katta yordam beradi, degan umiddamiz.

*Eshboy XO‘JANIYOZOV
filologiya fanlari nomzodi, dotsent*

I. NUQTA



Nuqta (.) – eng ko‘p qo‘llanadigan va eng qadimiy tinish belgilaridan biri. XI asrda arab matnlarida yozuv belgisi sifatida paydo bo‘lgan. XIX asrgacha uning vazifasi va qo‘llanishi hozirgi tinish belgisinikidan tamomila farq qilgan.

Nuqtaning ishoraviy belgi sifatida ishlatilishi qadimgi arab manbalariga borib taqaladi. O‘zbek tilida tinish belgisi sifatida XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ishlatila boshlangan. Nuqta, odatda, quyidagi o‘rinlarda qo‘yiladi:

1. Tinch ohang bilan aytiladigan har xil tuzilishdagi darak gaplar, shuningdek, buyruq, istak gaplar oxirida:

Darak mazmunidagi: *Milliy istiqlol sharofati bilan yangicha tafakkur va yangicha fikrlash shakllanmoqda* (*Egali gap*). *Shaftolizor bog‘larni ko‘rdim* (*Egasi ma’lum gap*). *Hurmat qilsang, hurmat ko‘rasan* (*Egasi umumlashgan gap*). *Ilk bahor. Daraxtlar endi kurtak yoza boshlagan palla* (*Atov gap*). Bu yerda o‘rtoq *Ergashevning hushyorligiga tan berish kerak* (*Egasi noma’lum gap*).

– *Menga ruxsatmi?*

– *Ruxsat.*

– *Boray bo‘lmasa...*

– *Boring (So‘z gap).*

Kim iste’dodli bo‘lsa, uning haqida ko‘p mish-mishlar to‘qiladi (Qo‘shma gap).

Buyruq mazmunidagi: *O‘zingga ravo ko‘rmagan narsani boshqalarga ham ravo ko‘rma. Avval o‘yla, keyin so‘yla. Qo‘lingdan kelmagan ishni qilma.*

Istak mazmunidagi: *Ertaga mакtabga borsam.*

2. Mantiqan qo‘shma gap bo‘lgan, ammo ular sodda gaplarga aylantirilgan holda alohida ohang bilan aytilsa va ikkinchi gap boshidagi *ammo, lekin, biroq, chunki, shuning uchun, go‘yo bog‘lovchilari* gaplar orasidagi izchillikni

(bog‘liqlikni) ta’min etsa, ulardan oldin ham nuqta qo‘yilishi mumkin: *Qo‘lini tig‘iga uzatdi. Lekin chol bu qimmatli buyumni qo‘ldan chiqarishni istamadi.* (Oybek) Bobodehqon yerga baraka urug‘ini ekish bilan band. **Chunki** dalalarda ish qizg‘in. Kim nima desa deyaversin. **Lekin** sartaroshlikdan yaxshi kasb yo‘q. (X.To‘xtaboyev) *To‘g‘ri, qishloq tomonga bir-ikki qadam bosdim.* **Lekin**, chamasi, kursdoshlar orasida yolg‘izlanib qolish, ming bir ta’nalarni eshitishdan ham qo‘rqdim, shekilli. (Sh.Xolmirzayev) *Oyqiz turgan yerdan sal narida ikki yosh bola katta toshni mashina kuzoviga tashlash uchun urinmoqda edi.* **Ammo** katta tosh bolalarni pisand qilmaganday, o‘rnidan jilmasdi. (Sh. R.) *Sotilgudek narsadan unda sopi fil tishi va kumush bilan ishlangan bir xanjargina bor.* **Lekin** *To‘g‘onbek ochdan o‘lishga rozi bo‘lsa ham, bu buyumdan ajralishni istamasdi.* (Oybek)

3. Birinchi qismida nuqta, ko‘p nuqta, undov, so‘roq belgisi bo‘lgan ko‘chirma gap o‘rtasida kelgan muallif gapidan so‘ng alohida to‘xtam bo‘lsa: „*Sen do‘st emassan, – dedi Iskandar aka. – Do‘st o‘rtog‘ini yengilning ostidan, og‘irning ustidan yurishga o‘rgatmaydi*“. (A.Ko‘chimov) „*Assalomu alaykum, Qurbon ota! – dedi Siddiqjon. – Salom, otaxon!*“ (A Qahhor.) „*Chet tilini bilish kerak, – dedi muallim. – Menimcha, chet tilini bilish fanni chuqur o‘rganishda va mustaqil muloqotda juda zarur*“. „*Buning tagiga o‘zimiz yetmasak, kim yetadi? – dedi Komila. – Birov kelib bizga hisobot beradimi?*“ „*Yetarli ... , – dedi Hoshimov. – Agar qalovini topsang qor yonadi*“.

4. Qisqartirilgan ism, familiya va ota ismining birinchi harfi yoki qismidan so‘ng: A.Q., A.Qod., G‘.G‘.; M.Behbudiy, A.Fitrat, A.Cho‘lpon kabi ijodkorlarning nomi hamisha barhayotdir. A.S.Pushkin – rus poeziyasining quyoshi.

5. Sanashda raqamlar yoki harflar bilan ko‘rsatilgan numerativlardan so‘ng. Bunda numerativdan keyin keladigan

gaplar mustaqillikka ega bo‘lishi shart: 1. a)__; b)__; d) __.
2. a)__; b)__; d)__.

Butunning qismlarini sanash uchun qo‘llanilgan arab raqamlaridan so‘ng ham nuqta ishlatalishi mumkin: Tovushlar quyidagi turlarga bo‘linadi: 1. Unli tovushlar. 2. Undosh tovushlar.

O‘zbek tilida quyidagi so‘zlarda urg‘u oxirgi bo‘g‘inga tushmaydi: 1. Arab va tojik tillaridan o‘tgan ayrim ravishlar: hozir, doim, aslo, yangi, hamisha. 2. Ayrim modal so‘zlar: zero, afsuski, albatta. 3. Ba’zi yordamchi so‘zlar: hatto, ba’zan, lekin. 4. Olmoshlarda: qaysi, qancha, hamma, barcha, allakim, kimdir, har kim, hech nima, bari. 5. Fe’lning buyruq shakllari: kelsin, olma, keltir, tortma, tegma. 6. Ayrim rus tili orqali o‘zlashgan so‘zlar: ruchka, gazeta, kofe, matematika, respublika, kollej, traktor, doktor.

6. Ba’zan sanalar raqam bilan yozilganda yil, oy, kunlarni ifodalovchi raqamlardan so‘ng o‘zaro ajratish uchun ular orasida qo‘yiladi: 02.07.2006., 2013-y. 5- avg. Terishga berildi 11.02.2014.

7. Hisob-kitob ishlarida nuqta belgisidan ko‘paytiruv automati sifatida ham foydalaniлади: $2 \times 2 = 4$ (ikki karra ikki to‘rt).

8. Dramatik asarlarda nutqi berilayotgan shaxs ismidan so‘ng:

D i l n a v o z. Shu kishi to‘g‘risida nima deysan?

R a h i m b a x sh. Buyukdir.

D i l n a v o z. Shunga yurakdan hurmatim bor.

R a h i m b a x sh. Hurmatga arziydir.

D i l n a v o z. O‘zi esa ma’jus.

R a h i m b a x sh. Insonliq ma’juslik yo musulmonlikka qaramaydir. Lolahardiyol insondir (A Fitrat)

9. Qavsga olingan manbadan oldingi gap oxirida nuqta o‘z o‘rnida saqlanadi. Qavsdan keyin hech qanday tinish belgisi qo‘yilmaydi: ...bo‘lmasa bo‘lmassun, netay. (Ogahiy)

10. Nashriyot ishlarida, lug‘at va ma’lumotnomalarda shartli ravishda qisqartirilgan ayrim so‘zlarni bildiruvchi bo‘laklardan so‘ng: *va sh.k.* (*va shu kabilar*); *s.t.* (*so‘zlashuv tilida*); *G‘.G‘.* (*G‘afur G‘ulom*); *Nav.* (*Navoiy*); *Toshk.* (*Toshkent*); „*O‘qituvchi*“ *NMIU* („*O‘qituvchi*“ *nashriyot matbaa ijodiy uyi*); 1995- y.

11. Qisqartma so‘zlarda qisqartirilgan so‘zlar orasiga nuqta qo‘yilmaydi: *AQSH*, *DTM*, *O‘zavtotrans*, *Toshshaharloyiha*, *XXR*, *IIV*, *DAN*, *O‘zA*, *AYOSH*, *MDH*, *O‘zMU*, *YTRK*, *O‘zROAK*, *Oz’AS*, *O‘zmashxolding*, *O‘zDEUavto*, *Anteks*, *Kibo*.

12. Sarlavha darak gap bo‘lsa nuqta qo‘yilmaydi.

Ammo sarlavha ikki gapdan iborat bo‘lgan holatlarda birinchi gapdan keyin nuqta qo‘yiladi: *Adabiy til haqida ma’lumot*. *Adabiy til shakllari* („*Hozirgi o‘zbek adabiy tili*“ *darsligidan*)

II. SO'ROQ BELGISI



So'roq belgisi (?) – gap oxirida qo'llanadigan tinish belgilaridan biri. Bu belgi asosan mazmunidan so'roq anglashilgan gaplar oxiriga qo'yiladi va shu gapning ifoda maqsadiga ko'ra so'roq gap ekanligini ko'rsatadi. Bu belgi o'zbek tiliga rus tilidan kirgan.

So'roq belgisining kelib chiqishi lotincha *questio* – so'roq so'ziga borib taqaladi. So'roq ma'nosida mazkur so'zning bиринчи harfi „Q“ ishlatila boshlagan, keyinchalik uning shakli hozirgi holatga (?) kelib qolgan. O'zbekcha matnlarga 1885-yildan boshlab, „Turkiston viloyatining gazeti“ sahifalarida ayrim matnlarda uchraydi. 1900-yildan so'ng esa muntazam ishlatila boshlangan.

O'zbek tilida so'roq belgisi quyidagi o'rinnlarda ishlatiladi:

1. So'roq gaplarning oxirida. Bunday gaplar tarkibida so'roqni bildiruvchi leksik yoki grammatik vositalar: so'roq olmoshlari, so'roq yuklamalari va so'roq ohangi ishtirok etadi:

– *Qayerdansiz?* – so'radi kimdir Nazir otadan. (O'.Umarbekov) – *Nimalarni ko'rdingiz?* – dedi Charos jilmayib. Navoiyning tilshunoslikka bag'ishlangan **qanday** asari bor? (So'roq olmoshlari yordamida so'roq gaplar hosil qilingan)

Yomonlikning jazosiz qolmasligini bilasizmi? – Men Toshkent-danman, o'zingiz-chi? – Yakkabog'dan. (O'.Umarbekov) – *Opajon, meni bog'ga olib boying, gullay yonida yasimga tushamiz-a?* (Hamrobonu) *Sinovlarga tayyormisiz?* *Shu maktabda o'qiysiz-a?* (So'roq yuklamalari yordamida so'roq gaplar hosil qilingan)

Ayrim gaplar tarkibida so'roqni bildiruvchi olmoshlar yoki yuklamalar ishtirok etmasligi ham mumkin. Bunday vaqtida so'roq ma'nosi ohang yordamida ifodalanadi: *Vazifani bajarib bo'ldim. Vazifani bajarib bo'ldim? Kechqurun idorada navbat-*

dagi mashvarat bo‘ldi. Navbatdagi mashvarat bo‘ldi? (Ohang o‘zgarishi natijasida so‘roq gaplar hosil bo‘lgan)

2. Gap yoki matn ichidagi birorta so‘z yoki jumla mujmal, noaniq, tushunarsiz yoki xato bo‘lsa, undan so‘ng qavs ichiga qo‘yiladi: *Bir narmdek (?) yoy bila bir kiyikning qo‘ltig‘iga otdim. („Boburnoma“) Abdulla Qodiriyning „O‘tkan kunlar“ qissasida (?) o‘zbek xalqining yaqin o‘tmishi haqida hikoya qilinadi. Ovqatga tajovuz (?) qilingandan so‘ng, mehmonlar qo‘llarini dasturxonga (?) artdilar.*

3. „Toping“ ma’nosida ishlataladi: $5 \times 5 = ?$

4. So‘z yoki ibora gumon mazmunini bildirsa: *Bu ishlarning hammasini yarim soat (?) ichida bir o‘zi bajar-dimikin?*

5. So‘roq gaplar sarlavha vazifasini bajarganda ulardan keyin so‘roq belgisi qo‘yiladi: *Yetti xazina nima? Bolangiz asadda tug‘ilganmi? („Hozirgi o‘zbek adabiy tili“ darsligidan. A.Nurmonov) Qarsak nima o‘zi? (Sh.Rahmon. She‘r sarlavhasi)*

Eslatma: *Birdan ortiq bo‘lib kelgan so‘roq gaplarda har bir gap mazmunan mustaqil bo‘lsa, har biridan so‘ng so‘roq belgisi qo‘yiladi:* *Komila so‘zida davom etdi: „Ha, Jamol qanday? Toshkentdami?“ (G‘.G‘ulom.) Qishloqlar qanday? Og‘aynilar yaxshi yurishibdimi?*

Birdan ortiq bo‘lib kelgan so‘roq gaplarda mazmunan umumiyl fikr ifodalansa, eng oxiriga so‘roq belgisi qo‘yiladi:
– *Tag‘in mehmon boshlab keldingmi? Kim kelyapti: Savrimi, Rahbarmi, Sadoqatmi yo akangning bolalarini yetaklab kelyapsanmi? (G‘.G‘ulom.) Biz, rahbarlarga ishonasizmi yo mana shunga o‘xshagan podachiga ishonasizmi? (T.Murod) Bu o‘zingning fikringmi yo biror ko‘rsatma bormi? (T.Malik)*

III. UNDOV BELGISI



Undov belgisi (!) asosan gap oxirida qo'llana-digan, ikki elementli tinish belgisi. Yozma nutqda, ayniqsa, badiiy asarlarda turli tuyg'ular, holatlar, har xil emotsiyonalliklarni ifodalashda undov belgisining roli katta. Asosan, undov va buyruq gaplar oxirida muayyan gapning emotsiyonal yoki qat'iy buyruq ma'nosiga ega ekanligini, tugallanganligini, boshqa gaplardan chegaralanish nuqtasini ko'rsatadi. U o'zbek yozuvida XX asrning boshidan – dastlab „Turkiston viloyatining gazeti“da 1901-yildan, keyinchalik boshqa bosma asarlarda muntazam qo'llana boshlagan.

Undov belgisi o'zbek tiliga rus tilidan o'tgan. Mutaxassis-larning fikricha, u lotincha *lo* – undov so'zidan kelib chiqqan bo'lib, unga nuqta (.) ning qo'shilishidan hosil bo'lган. Undov belgisi o'zbek tilida quyidagi holatlarda ishlatiladi:

1. Kuchli his-hayajon ifodalagan har xil tuzilishdagi gaplardan so'ng:

Voy-bo', – deb yubordi u. – Yerimiz muncha chiroqli! Globusning o'zginasi-ya! (A. Bo'riboev) O, muazzam Enasoy daryosi! (Ch. Aytmatov) Axir, sizlar odam-ku! (A. Cho'lpon) O, naqadar soz! Yoshligimizda naqadar baxtiyor edik!

Oqpodsho yerdan bir siqim tuproq oladi.

– Ana tuproq, mana tuproq! – deydi. – Bo'rsildoq tuproq, mag'izdor tuproq, hosildor tuproq. Tuproqmisan-tuproq! (T.Murod)

Ba'zan ohang o'zgarishi natijasida turli xil gaplar his-hayajon gaplarga aylanishi va undov belgisi qo'yilishi mumkin: *Poyezd keldi. Keldi poyezd! Uyingiz nurga to'lsin. Nurga to'lsin uyingiz! Dalaga chiqmaysizmi? Chiqmaysizmi dalaga?! Vatanim bog'larga burkansa. Bog'larga burkansa Vatanim!*

3. His-hayajon ifodalangan atov gaplarda: *Toki odamlar meni ko'rmasin, faqat mehnatimni ko'rishsin. Mehnat! Mehnat!*

Mehnat! (A.Muxtor) Kuz! Oltin kuz! Bepoyon dalalarning fayzi yanada ortgan. (G'.G'ulom) Tog'lar! Baland tog'lar! Alpinistlar cho'qqi tomon ko'tarilmoqdalar.

4. His-hayajon ifodalangan so‘z-gaplardan so‘ng. Ha, yo‘q, xo‘p, uzr, mayli, xayr, salom kabi so‘z-gaplar hayajon bilan aytilsa, ulardan so‘ng qo‘yiladi: – *Balli-ball!* – dedi Rahim va Sharifga qarab im qoqdi. – *Yo‘q!* Borolmayman, – dedi qayrilib. (A. Qodiriy) *O-ho!* Savollaringiz tugamaydi-ku. Albatta! – dedi Anvar, – *boshqalar kishi gunohi uchun gunohsizni tutib, pusulmonchiliqdan chiqqach, men pusulmonchiliq bilan o‘lishni o‘bdan bildim!* (A. Qodiriy) *Ur-re-e-e!* – u boychechakni qo‘lida hirpiratib, toychoqdek shatoloq otib chopar edi. (A. Ko‘chimov)

– *Biror gap eshitdingizmi? – so‘radi Jo‘raxon.*

– *Yo‘q-yo‘q!* (A. Muxtror) *Yo‘q! Yo‘q!* Men aytolmayman.

2. Buyurish, yalinish, orzu-istik, xohish va shu kabi ma’nolarni ifodalovchi gaplarning oxirida: – *Siz ham oyoqni ishlating!* – *deb buyurdi.* – *Suv ostida o‘pqonlar ko‘p.* Tortib ketmasin! (P. Qodirov) *Uyqudan ko‘z ochinglar!* *Urununglar!* *Ilm-ma’rifat va hunar izlanglar!* Vaqt yetdi, balki o‘tdi... (A. Cho‘lpon) *Qahramonim, omon bo‘l!* *Hoziroq bularni ko‘zimdan yo‘qot!* *Qani endi qush kabi parvoz qilsam!*

5. So‘z boshida kelib, kuchli his-hayajon bilan aytilgan undalmalardan so‘ng: *Ey arslonlar arsloni!* *Mening yozuqlarimdan o‘t, mening qo‘limni tut, belimni bog‘la, muqaddas fotihangni ber!* (A.Fitrat) *Aziz kitobxonlar!* *Hech qachon unutmangki, sizlar Navoiydek ulug‘, tabarruk boboga nabira bo‘lasizlar.* (E.Vohidov) *Ey vatandoshlarim!* *Qachong‘acha bu g‘aflat?* *Nimaga buncha xushyoqmassizlar?* (A.Cho‘lpon) *She’rim!* *Yana o‘zing yaxshisan.* *Bog‘ga kirsang gullar sharmanda.* (U.Nosir) *Hoy!* *Qayoqqa?!* *Azizlar!* *sizlarni bu qutlug‘ bayram bilan samimiyl tabriklayman!*

6. Matn ichida alohida ta’kidlangan, ajratib ko‘rsatilgan so‘zlardan keyin qavs ichida berilishi mumkin:

„Boburnoma“da tarix, etnografiya, til, adabiyot, geografiya, biologiya, botanika, hatto tabobatga (!) oid g‘oyat qimmatli ma‘lumotlarni uchratish mumkin. Biz oltmish student dorul-fununning adabiyot bo‘limida besh yil (!) tahsil ko‘rdik, lekin Alisher Navoiyni bilmay ketaverdik. (E.Vohidov)

– O‘, qardosh, sen faylasuf ekansan. Qo‘y, bu gaplarni.

– Bu falsafa emas, bu haqiqat! – dedi Chuvrindi haqoratlangan odamning ovozida. – Avvalgi kuni, idorangizda bizni ancha masalalarda aybladingiz. Mehmoningiz edim, chidab eshitdim. Bizni o‘zbek (!) deydilar. Mayli, qaysilarimiz noahildirmiz, boshqadirmiz, lekin o‘zbekmiz, „o‘z“imizga „bek“miz. Qullikni hazm qilolmaymiz. (T.Malik)

7. Aytishi lozim bo‘lgan fikr o‘ta kuchli his-hayajon bilan aytilsa, ketma-ket uchta belgi qo‘yiladi: *Charos kafti bilan yuzini to‘sancha o‘zini orqaga tashladi.*

– A-a-a!!! – dedi chinqirib. (O‘.Hoshimov)

– Chiqar buni jallod!!! Jallodlar harakatlandilar.

– Xanjarimiz qonsirag‘on! (A.Qodiriy)

– Suv! Suv! – deb qichqirdi mingboshi Suv! Yuragim kuyib ketdi... yonib ketdi!.. Suv! Suv!!! (A.Cho‘pon)


Ha, ho‘kiz uylaringga eltib berilsinmi?! Axir borilsin, arz qilinsin-da!!! (A.Qahhor)

8. His-hayajon bilan aytigan so‘roq, shuningdek, ritorik so‘roq gaplardan so‘ng: *Kimdir seni kutsa, kimnidir sen ham sog‘insang, qanday baxt bu!?* (O‘. Hoshimov)

9. Undov gaplar sarlavha vazifasida qo‘llanganda ularning oxiriga undov belgisi qo‘yiladi.

IV. KO'P NUQTA

Ko'p nuqta (...) – ketma-ket qo'yila-digan uch nuqtadan iborat tinish belgisi. Ko'p nuqta XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab o'zbekcha matnlarda ishlatila boshlangan. 1876-yildan e'tiboran, „Turkiston viloyatining gazeti“da muntazam qo'llangan. Ko'p nuqta quyidagi o'rnlarda ishlatiladi:



1. Mazmunan tugallanmay qolgan gaplar oxirida fikrning tugallanmaganligini, so'zlovchining yana nimadir demoqchiligin ko'rsatadi:

To'ra biroz o'ylanib turgach, podshoning devordagi suratini, so'ngra o'zining yelkasidagi pogonini ko'rsatdi.

– Mana shu imperiya...

Miryoqub hech narsani anglamadi. (A. Cho'lpon)

Navoiy tokchadagi shamga qaradi, o'rnidan qo'zg'olarkan, Darveshali: „Men... Men...“ deb dik etib turdi-da, shamdonni olib o'rtaga qo'ydi va qaychi bilan sham uchini avaylab kesdi. (Oybek) O'zing tengi bolalar lager palatkalarida maza qilib uqlab yotganida, sen suv sepib, yo'lka supurishing... Nima desam ekan... Sal alam qiladi kishiga... (O'. Hoshimov)

2. Gap biror sabab bilan bo'linganligini ko'rsatadi:

„Yana shuni aytdingizki ... Shu payt adyutant kirib, polkovnikka bir qog'oz uzatdi. (A.Qahhor)

– E-e, otam... – Qo'zivoyni hiqichoq tutib goldi. – X-xush kelib... h-hiq... siz... H-hozir sizni... (M. Ochilov)

Qozi Nizom. „Biz xon hazratlariga o'zimizni qurban qildik. Emidi nomusimizni ham istamasunlar“, dedilar. Men aytdimki...

Xon (so'zini kesib). Bas... yegan tuzlar ko'r etsun uni... Kimni tuproqdan ko'tarib kursiga chiqarsak, tezgina boshimizg'a chiqmoqchi bo'ladir. (A.Fitrat)

– Shu, deyman, Toshpo'lat, sen menga mundoq xushomad qilsang-u Xolidaga uylansang nima bo'larkan? – deb hazil-

lashdi Samad. – U mening jiyanim, sen mening do'stim, begonaga uzatgandan ko'ra...

– *Senga xudo bas kelsin, oshna, – dedi G'aybarov. – Esing joyidami yo meni uyingga kelmaydigan qilmoqchimisan? (M. M. Do'st)*

3. So'zlovchining o'yashi, mulohaza qilishini ko'rsatadi:
Hmmm... bolam! Nimaga muncha zarda qilasan? Man sanga teking'a ariza yozub ber devotmanmi? Yozganda pulg'a yozub berasan. Jahling chiqadurg'on bo'lsa, advokatlik qilma!... Hmmm... bolam, advokatlik osonmi? (A. Avloniy) Vaholanki, partiya minbaridan bunday pala-partish foydalanish... bilmadim, nima deyish mumkin buni?! (O'. Usmonov) Och nazarim tushar suratga... Surat, surat! (Mirtemir) – So'kma. Bechora ning sendan boshqa kimi bor? – So'kmayman... Lekin... – Sarsonboy ota birdan qiqir-qiqir kulib yubordi. (O'. Umarbekov) Bugun ... bugun oldingizga o'tsam bo'ladimi?

4. Kuchli his-hayajon ifodalangan gaplar oxirida so'zlovchining cheksiz his-hayajonini ifodalash uchun: Xo'jayin, - xo'jayin, men... juda bir qiziq... juda bir g'alati... hali kelsa ko'rarsiz, kula-kula o'larsiz. (A. Avloniy) Tog'am... tog'amlar ko'chyaptilar... (O. Yoqubov)

Do'xtir ayol og'iz berkitib piq-piq yig'ladi:

– *Men... men O'zbekistonda besh-olti yil ishlab edim, – deya yig'ladi. – Bechora xalq-a, bechoragina xalq-a... (T. Murod) Oh... Koshki men qaytub kelmog'on bo'lsam edi. Bu qayg'ulik hollarni ko'rmag'on bo'lar edim. (A. Avloniy) Oh ... Nima dey?*

5. Beqiyos tabiat manzaralarini ifodalash uchun: Qish... Butun atrof oppoq libosda...

Qor... qor –

Zaharli ninalar kabi

Ko'zlarga qarab oqar... (Cho'lpon)

Cho'l, quq-quruq cho'l... Suv – pastda, chuqurda. Atrofdagi dehqonlardan ba'zilari u yerni ekin yeriga aylantirish uchun turli davrlarda yakka-yakka urinib ko'rgan, lekin hamma qilgan

mehnatlari bekor ketib, u yerdan hafsalalari pir bo'lgandi.
(Cho'lpon)

6. Matn (jumla) qisqartirilganda biror so'z yoki gapning tushirilganligini ko'rsatadi: *Bugun yettinchi bo'limga kelib, ... fig'oni oshdi.* (T. Malik)

- Anovi kuni menga bir oyat aytib edingiz?
- Xo'sh, xo'sh?
- Ilkimdan kelguncha... – deb boshlanar edi.
- Ha-ha, bo'tam, lekin bu oyat emas, hazrat Navoiyning hikmatlaridir. (X. To'xtaboyev)

Tor sadolari yuraklarni zirillatib tilga kirganidan keyingina zal asta-sekin tinchiy boshladi. O'sha ondayoq Alimardonning tiniq ovozi osuda parvoz etdi:

„.... Ranginamni sariq qilgan ul qalam qoshi...“
(O'. Hoshimov)

7. Suhbatdoshning gapi javobsiz qoldirilganda, ya'ni kimningdir indamay turganligini ko'rsatish uchun:

– Manavi dub eshiklariningizni yelkamda tashib kelganman. Tushundingizmi?

– ...

Tushundingizmi deyapman? (X. Sultonov)

Yoki:

Bilaman, meni kechirmaysiz...

– ...

8. Fikr bo'lib-bo'lib ifoda qilinsa yoki duduqlanib aytilsa:

Muhammadyor yolg'iz:

– Tirkistonda birinchi m...m...m... artaba tia... t... t... tr, – dedi-da, fikrg'a toldi. (A. Cho'lpon)

Xoji Ahmad o'lar vaqtida Muhammadyorga qarab:

– O'g'lim! Meros sen...ga... o'lturgan... joy... Vasiyatim... o'qi... o'...qu... o'qu... o'qi... Men... r-r-r...zomen, – deb jon taslim qildi. (A. Cho'lpon)

9. Tushirib qoldirilgan harf, so'z yoki boshqalar o'rnida:

1. 2- mashq. Til haqidagi quyidagi maqol va hikmatlarning davomini aniqlang va to‘liq holda ko‘chirib oling. 1. Suydiradigan ham til, ... 2. Tilning ko‘rki – so‘z, kishi... (Y. X. Hojib). 3. Tilingni ixtiyoriningda asragil, so‘zingni... (A. Navoiy). 4. Kishining go‘zalligi uning... (Hadis). 5. So‘z ichra mudom aql yashirindur, So‘z chimildig‘u... (N. Xisrav).


2. Mashq. Nuqtalar o‘rniga kelishik qo‘srimchalaridan qo‘yib, gaplarni ko‘chiring, -ning, -ni qo‘srimchalarining qo‘llanishini izohlang. 1. Mamlakat... kichik bir qismi bo‘lgan oila..., u... tinchligi... asraylik.

2. Nuqtalar o‘rniga kerakli harfni qo‘yib ko‘chirib yozing. Xayri...oh, a...loq, ...abar.

10. Sarlavha so‘ngida gapning mazmuniga qarab ko‘p nuqta qo‘yilishi mumkin.

V. VERGUL

Vergul (frans. vergul) tinish belgisi sifatida G'arbiy Yevropada XV asrdan boshlab ishlatala boshlangan. O'zbekcha matnlarda XX asr boshlaridan uchratamiz.



Vergul (,) – eng ko‘p qo‘llanadigan tinish belgilar jumlasiga kiradi. Qo‘llanish o‘rnii, shakli turli davrlarda va turli tillarga oid yozuvlarda har xil bo‘lgan. O‘zbek tilida vergul „teskari pesh“, „pesh“, „yarim turish“, „yarim tinish“ kabi nomlar bilan ham yuritilgan. Vergul dastlab qisqa pauza uchun ishlatilgan, keyinchalik uning qo‘llanish doirasi va vazifasi kengaygan.

Undan quyidagi o‘rinlarda foydalaniladi:

1. Uyushiq bo‘laklar (gapda bir xil so‘roqqa javob bo‘ladigan va bir xil gap bo‘lagi vazifasini bajaradigan so‘zlar) orasida.

Bog‘lovchisiz birikkan uyushiq bo‘laklar orasida: *San’atkor izvoshchini hayron qoldirib, o‘zidan o‘zi g‘uldirab borar edi.* (A. Qahhor) *Osmonda, daraxtlarda, tomlarda, bo‘g‘otlarda chumchuqlar chirqillashadi.* (M. Ismoiliy) *Eshilib, to‘lg‘onib ingranadi kuy* (A. Oripov)

Takror holda qo‘llanuvchi bog‘lovchilar bilan birikkan uyushiq bo‘laklar orasida. Bunday gaplarda mazkur tinish belgisi takror qo‘llanayotgan ikkinchi bog‘lovchidan oldin qo‘yiladi: *Saodat goh men bilan, goh atlas bilan mashg‘ul, boyagi uyalib turishini bir yoqqa yig‘ishtirib qo‘ygan edi.* (A. Qodiriy) *Na sen, na men buning kafilini olganmiz.* (Shuxrat)

Zidlov bog‘lovchilari yordamida birikkan uyushiq bo‘laklar orasida. Bunday gaplarda vergul zidlov bog‘lovchilardan oldin qo‘yiladi: *Zamiraning baland, ammo mayin ovozi bor edi.* (P. Qodirov) *Hammasini tinglardim, ammo o‘xshashini topmasdim aslo.* (H. Olimjon) *Boltaboy bog‘dagi kichikina, biroq xushbo‘y gullardan uzib keldi.*

2. Undalma (so‘zlovchining nutqi qaratilgan shaxs, predmet yoki hodisa)larni ajratishda: *Inim, siz kitoblarni sandiqlarga joylashtiravering.* (Mirmuhsin) **Onajonim,** balki bir kun Aytganingday bo‘lar to‘y. (A.Oripov) Agar or etsa Layli haqlidur Qaysning jununidin, Ne baxt, **Ra’no,** xaridoring talab ahlining mirzosi. (A.Qodiriy) Ha, erka qizalog‘im, sen mening kelajagim, umidimsan.

3. Kirish so‘zlar, birikmalar va gaplarni ajratishda.

Kirish so‘zlarni (so‘zlovchining o‘zi bayon qilayotgan fikriga munosabatini ifodalaydi) ajratishda.

Modal so‘zlar bilan ifodalangan kirish so‘zlar: *Xayriyat, daraning oxiriga yaqinlashgan sayin asov soy sayozlashib, muz tobora yupqalashib bordi-yu, nihoyat, qoyatoshlar chekinib, yaylov ko‘rindi.* (O.Yoqubov) *Oyim, chamanda, bu gapni damga aytmadi.* (O’.Hoshimov) **Ehtimol,** bu ishni o‘zing bajarsan. (H.No‘mon)

Undov so‘zlar bilan ifodalangan kirish so‘zlar: *Voy, shoshmang, diydorginasiga bir to‘yvolay.* (S. Ahmad) **Obbo,** Komiljon-e, obbo, Komiljon-e, so‘zga juda ustasiz-da. (Uyg‘un) *Dastlab ular Umidjonne ko‘rganda pisandsiz: „E, bu mishiqi bola-ku“, – deyishar, biroq uning ertaklarini eshitgach, „Yo‘q, bu bola emas, dunyo ko‘rgan chol ekan“, deya tan berib ketisharkan.* (N.Aminov)

Tasdiq va inkor so‘zlar bilan ifodalangan kirish so‘zlar: *Men haq gapni aytyapman. – Ha, mayli, buni hozircha ochiq qoldiramiz.* (X.To‘xtaboyev) **Yo‘q,** bu ishni keyinga tashlab bo‘lmaydi. (I.Rahim) **Xo‘p,** shu so‘riga joy qilgin (S.Zunnunova)

Kirish birikmani ajratishda: *Dunyoda hech bir xalq to‘g‘ri kelolmas, Mening bilishimcha, sening elingga.* (H.Olimjon) **Uning fikricha,** matoh juda qimmatmish. **Farobiyning yozi-shicha,** inson jamiyatda o‘zaro munosabatlatda voyaga yetadi.

Kirish gaplarni ajratishda: *Yolg‘iz borishga, to‘g‘risini aytsam, qo‘rqaman.* (Oybek) *Qurban ota uning suhbatini xohlamasa ham, odamning yuzi issiq – hamsafar bo‘lish to‘g‘ri-*

sidagi sazasini o‘ldirmadi. (A. Qahhor) Yaxshilik, menga qolsa, tushga kirmagan bir yaxshilik (Oybek)

4. Ajratilgan bo‘laklarni ayirib ko‘rsatishda: *Hu ana shu joyda, taxta ko‘prikning ostida, kichik bir buloq bor. (A.Qahhor) Biz Xorazmda, Ma’mun ibn Ma’mun saroyida besh yil birga xizmat qilganmiz, begim. (O. Yoqubov) Borlig‘im-la farzandingman, sodiq, mehribon, Ozarbayjon, Ozarbayjon! (S.Vurg‘un)*

5. Qo‘shma gaplarda.

Bog‘langan qo‘shma gaplarda: Zidlov munosabatli bog‘langan qo‘shma gaplarda vergul *ammo*, *lekin*, *biroq* bog‘lovchilaridan oldin qo‘yiladi: *Kechasi yana qor yog‘gan, biroq havo unchalik sovuq emas edi. (S.Ahmad) Ko‘p qizlarni ko‘z ostiga olib yuradi-yu, biroq „kamchilik“ topib, ayniydi. (M.Ali) Men uyalib yerga qarayman, ammo Turg‘un pisand qilmay shaftolini maqtaydi. (Oybek) Bilimli va tadbirkor bo‘ling, lekin bu xislatlaringiz sizni xudbinlikka sira yetaklamasin.* Eslatma: Ba’zan qo‘shma gaplarda zidlov bog‘lovchilaridan oldin nuqta yoki nuqtali vergul qo‘yilish hollari ham uchraydi. Bu haqda nuqta haqidagi mavzuda so‘z yuritildi.

Ayiruv va inkor munosabatli bog‘langan qo‘shma gaplarda vergul takror qo‘llanayotgan bog‘lovchidan oldin qo‘llaniladi: *Men kuyladim goh dilda kadar, goh sevinib she'r to‘qiymen men. (A.Oripov) Yo bir maslahatni aytib bo‘ladi, yo ro‘zg‘or ishini. (Cho‘lpon) Na ko‘cha bor, na mustahkam uy-joy, na dala shiyponi bor. (Oybek) Yo biz boraylik, yo siz kelng.*

Bo‘lsa, esa so‘zlar yordamida bog‘langan qo‘shma gaplarda vergul qiyoslanuvchi bo‘lakdan oldin qo‘yiladi: *Ulug‘ Navoiy o‘zigacha yashagan va o‘ziga zamondosh bo‘lgan shoirlarning baytlarini yig‘ib „Majolis un-nafois“ asarini tuzgan holda, avlodlar mulkiga aylantirdi, buyuk Sa’diy Sheroziy esa xalq donishmandligining nodir namunalariga o‘z iste’dodi shu’lasi bilan sayqal berib, „Guliston“ va „Bo‘ston“larni yaratdi. (E. Vohidov) Yaxshi yaxshiga yondashtiradi, yomon esa yo‘ldan*

adashtiradi. (Maqol) Egrilik insonni qabohatga yetaklaydi, to‘g‘rilik bo‘lsa uni saodatga boshlaydi.

Bog‘langan qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplar o‘zaro -u, -yu, -da, yuklamalari vositasida bog‘langanda vergul bu yuklamalardan keyin qo‘yiladi: *Termometr hamshiraning qo‘lidan tushib ketdi-yu, bir tomchi simob yaltirab polga dumaladi. (S.Ahmad) Sarbon shundog‘ dedi-da, quchog‘ini ochib Abu Bakr tomon kela boshladi. (M.Ali)*

Ergashgan qo‘shma gaplar orasida:

Ergashgan qo‘shma gaplar tarkibidagi sodda gaplar o‘zaro -ki yuklamasi hamda -sa shart mayli qo‘shimchasi yordamida bog‘langanda vergul bu bog‘lovchi vositalardan keyin qo‘yiladi: *Kasalini yashirsang, isitmasi oshkor qiladi (Maqol) Kimniki qo‘lidan yaxshilik kelmasa, u yomonlik qilishdan saqlansin. („Donolar xazinasi“dan) Shunga ishonchim komilki, qasd qilganlar, albatta, past bo‘ladi. (Shuxrat) Hunar shunday otdirki, u mingan kishini rohat va e’tibor manziliga yetkazadi. („Donolar xazinasi“dan)*

Ergashgan qo‘shma gaplar tarkibidagi sodda gaplar o‘zaro **chunki, negaki, toki, go‘yo** ergashtiruvchi bog‘lovchilar, **shuning uchun, shu sababli, shu tufayli, shu bois** ko‘makchili qurilmalari yordamida bog‘langanda vergul bu bog‘lovchi vositalardan oldin qo‘yiladi: *Oyna opa xatni oxirigacha o‘qiy olmadi, chunki hovlining eshigini kimdir taqillata boshladi. (Sh. Xolmirzayev) Ozgina hovliqib turishsa ham, cho‘chishsa ham mayliga, negaki keyin yelkalaridan yuk arigan mahali tuyadigan shodliklari ham shunga yarasha bo‘ladi. (M. M. Do‘st) Beda orasi juda issiq, go‘yo quyoshning butun olovi beda ichida yashiringanday. (Oybek.) Har kun ortar ko‘zlarimda nur, Shuning uchun yo‘q aslo g‘amim (H. Olimjon) Musavvirlikka menda havas uyg‘ondi, shu sababli uning sirlarini o‘rganishga astoydil bel bog‘ladim. (S. Ahmad) Beruniy ilm yo‘lidagi hamkorlikni juda qadrlar, shuning uchun ham o‘z davrining taniqli olimlari bilan ilmiy aloqalar o‘rnatgan edi. (M. Osim)*

O'qituvchi bolalarni nazmdan xabardor etishni o'z burchi hisoblardi, shu bois „Guliston“ va „Bo'ston“ kabi kitoblarni mustaqil mutolaa qilishga ruxsat bergen edi. (A.Qayumov)

Bog'lovchisiz qo'shma gaplar orasida. *Uyda xizmatchi ovqat qilib qo'ygan ekan, san'atkoring tomog'idan hech narsa o'tmadi – ikki piyola choy ichdi, xolos... (A.Qahhor) Do'sting mingta bo'lsa ham oz, dushmaning bitta bo'lsa ham ko'p. (Maqol) Yurgan – daryo, o'tirgan – bo'yra. (Maqol)*

Bog'lovchisiz qo'shma gaplar tarkibidagi sodda gaplar bir paytda yuz bergan voqeа-hodisalarni ifodalaydi: *Yangi shahar ko'chalari quruq va toza, ilk bahor shamollari yoqimli esadi. (Oybek) Osmonda yoqutdek yirik yulduzlar porlaydi, yangi oyning o'rog'i daryoda qalqib-qalqib suzadi. (S. Siyoyev) Yigitlar daraxtlarning ostini yumshatdilar, qizlar mакtab hovlisini supurdilar.*

Bog'lovchisiz qo'shma gaplar tarkibidagi sodda gaplar ketma-ket yuz bergan voqeа-hodisalarni ifodalaydi: *Ruboiyni ichida o'qidi, yuzini tabassum qopladi. (Oybek) Avval ular bizga yetib olishsin, keyin birga jo'naymiz. (X.To'xtaboyev) Mahmudxon bir lahza o'yga toldi, so'ng o'g'liga yon bosgan bo'lib, muloyim tovushda gapirdi. (S. Siyoyev) Bir vaqt das-turxon yozildi, turli taomlar kirdi. (Ertakdan)*

6. Ko'chirma gap va muallif gapi orasida (ko'chirma gap darak, buyruq, istak gapdan iborat bo'lgan holatlarda): „*Hali ko'nglingiz g'unchaday yosh, ota*“, – dedi Sayramov. (Oybek) „*Eshikni yoping*“, – dedi Nafisa zarda bilan. (T. Malik) „*Endi hamisha xonadon sohibining gapiga qulq solgaysiz, – dedi Bibixonim kelunga, – aytganlarini so'zsiz bajargaysiz*“. (P.Qodirov)

7. Va, ham, hamda, yoki (takrorlanmasdan kelsa) bog'-lovchilari vositasida bog'langan qo'shma gaplar orasiga vergul qo'yilmaydi.

VI. NUQTALI VERGUL

Nuqtali vergul (;) – ustma-ust joylashgan nuqta va verguldan tashkil topgan, ikki unsurli tinish belgilaridan biri. O'zbekcha matnlarda XIX asr oxirlaridan, 1885- yildan boshlab uch-raydi.



U quyidagi o'rnlarda ishlataladi:

1. Bog'lovchisiz qo'shma gaplar tarkibida:

Bo'g'lovchisiz qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar mazmun jihatidan tugal fikrni anglatib, bir-biriga yaqin bo'limgan voqeа-hodisalarни ifodalaganda: *Hayhotday hovli fayzsiz; daraxtlar ostini o't-o'lan bosgan, hovlining etak tomonida bir juft yirik-yirik qarg'a loqayd kezib yurar edi.* (O.Otaxonov) *Obidjon borib pechkaning ichiga qo'l tiqadi; nimanidir mahkam ushlaydi.* (A.Qahhor) *Toshkentning asl nomi Chochdir. Choch – Xirmon o'rni ma'nosida. So'ngroq Choch Shoshga aylanadi. Oxirgi asrlardagina Shosh Toshga aylanadi; Toshkent atala boshlaydi.* (G.G'ulom) *Bir joyda turganimda deyarli fikr qilolmayman; tanam hamma vaqt harakatda bo'lishi kerak, ana o'shanda aqlim ham harakatga keladi.* (J.J.Russo) *Shinel jiqla ho'l; Bektemirning yuzidan ter quylardi.* (A.Muxtor)

Bo'g'lovchisiz qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarning o'z ichida verguli mavjud bo'lsa: *Lekin avtor shu kichkinagina hikoyada katta ish qiladi; o'quvchining ko'z oldiga odamning havasi keladigan, har qanday kishining muhabbatini o'ziga qaratadigan, har qancha izzat qilsa arziyadigan va bu izzatga o'zining jafokashligi, g'ayrati, farosati, el-yurt uchun qayg'urishi bilan sazovor bo'lgan bir chol keladi.* (A.Qahhor) *Xadicha xola bolalik chog'idagi singari uning beliga non tugib berdi, peshonasidan o'pdi, duo qildi; irim qilib o'zi kuzatgani chiqmadi.* (A.Qahhor) *Kampirning jig'i-biyroni chiqdi; ombor-*

dan olib chiqqan bir savat paxtasi bilan chig‘irig‘ini ko‘tarib, vaysaganicha, uyiga kirib ketdi. (A.Qahhor)

Bog‘lovchisiz qo‘shma gap tarkibiga kirgan sodda gaplardagi voqealar bir-biriga qiyoslanganda: *Ish kuchini elga berma, yerga ber; jamg‘armani selga berma, elga ber!*

Yaxshini yomon dema, olishing bo‘lsa ham;

Yomonni yaxshi dema, yaqining bo‘lsa ham.

2. Uyushiq bo‘laklar guruhlanib, o‘zaro vergullar yordamida bir-biridan ajratilganda, har bir guruhni anglatuvchi so‘zdan keyin: *Gerb rangli tasvirda bo‘lib, Humo qushi kumush rangda; quyosh, boshoqlar, paxta chanog‘i va „O‘zbekiston“ degan yozuv tilla rangda; g‘oza shoxlari va barglari, vodiylar yashil rangda; tog‘lar havo rangda; chanoqdagi paxta, daryolar, yarimoy va yulduz oq rangda beriladi. Istiqlol davri bolalari g‘ayratli, shijoatli; ko‘zida chaqini, ko‘ksida yolqini bor.*

Mehnat, ijod, odam sharafi;

Dil yorug‘i, hayot quvonchi,

Hammasing asli manbayi –

Sen, Vatanim – tinchlik tayanchi. (S.Nazar)

Bog‘imizda shaftoli va olma; qovun va tarvuzlar pishib yotibdi.

4. Reja, qaror, farmon, buyruq, qonun va shu kabilarning oxirgi bandidan tashqari har bir bandi oxirida. Raqam, harf yarim qavs bilan berkitilgan yoki sanab ko‘rsatilgan holatlarda: *Otabek timsoliga tavsif:*

a) *Otabek – o‘qimishli, o‘z davrining yetuk kishisi;*

b) *Otabek – mard va jasur yigit;*

c) *Otabek – o‘z ahdiga sodiq, vafoli yor.*

„Kamolot – KOMPYUTER“ biznes maktabi quyidagi o‘quv kurslariga taklif qiladi:

Bir oylik kurslarga:

– buxgalteriya dasturi bilan ishlash ta’limi;

– video operatorlari kursi;

– *INTERNETga o‘qitish.*

Ikki oylik kurslarga:

– *zamonaviy buxgalteriya hisobi;*

– *bank ishi;*


– *kompyuterda ishlash ta’limi;*

– *sartaroshlik kursi;*

– *professional fotograflar.*

VII. IKKI NUQTA

Ikki nuqta (:) o‘zbek yozuvida XIX asrning oxiri va XX asrning boshlaridan e’tiboran ishlatila boshlangan. U ustma-ust qo‘yiladigan ikki nuqta-dan iborat bo‘lib quyidagi o‘rinlarda ishlatiladi:



1. Uyushiq bo‘laklardan oldin kelgan umumlash-tiruvchi yoki ularni oydinlashtiruvchi so‘zdan keyin. *Ma’naviy-axlo-qiy tarbiyalangan inson shunday insonki, u shariat, tariqat va haqiqat borasida mukammaldir. Unda to‘rt narsa shakllangan bo‘ladi: yaxshi so‘z, yaxshi amal, yaxshi xulq va ma’rifat. (Bahouddin Naqshband) Hammasini: kitob, daftар, ruchkalarini sumkasiga soldi. O‘zbekiston Respublikasining Davlat ramz-lari: Davlat bayrog‘i, Davlat gerbi va Davlat madhiyasi milliy iftixorimiz, sharaf va shonimiz sanaladi. O‘zbeklar orasida qadim-qadimdan chinakam insoniy fazilatlar: do‘slik, mehr-oqibat, odamgarchilik, axloqiy teranlik ulug‘lanib kelingan. Bozordagi bor gullardan: atirgul, lola, chinnigul oldim. So‘zga chiqdilar: S. Olimov, I. Shokirov, A. Ulug‘ov.*

Ba’zan umumlashtiruvchi so‘z yashirinishi mumkin, lekin ikki nuqta qo‘yilaveradi. *Qilinishi kerak: traktorlar ta’mirdan chiqarilsin, ishchilarga yetarli sharoit yaratilsin.*

2. Ko‘chirma gapdan oldin kelgan muallif gapidan so‘ng. *Bundan so‘ng qutidor turib ichkariga yugurdi, yarim yo‘ldanoq tanchada o‘tiruvchi Oftoboyim va Kumushga qichqirdi:*

– Sir ochildi! (A.Qodiriy)

San’atkor uyiga ketgani izvoshga o‘tirganida yana tutaqib ketdi: „Hech bo‘lmasa aytadigan ashulangni o‘rgan, so‘zlarini to‘g‘ri ayt“ emish! (A.Qahhor) Kampir oyoq ostida o‘sgan o‘tdan yilib, kiyik tomon yura boshlabdi: „Ma, jonivor, ma!“ (S.Ahmad) Zaynab unga hasadlanib qaradi va kuchlanib aytdi: – Hali yoshga o‘xshaysiz-ku. (A.Qodiriy) Abdulla Avloniy shunday degan edi: „Ilm – dunyoning izzati, oxiratning sharofatidir, Ilm inson uchun g‘oyat oliy va muqaddas fazilatdur“.

3. Bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarda.

Shaklan tugallangan, lekin mazmunan keyingisi birinchi-sining uzviy davomi sanalgan bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar-dan so‘ng. Bunday gaplarda bir gap ikkinchi bir gapning mazmunini to‘ldiradi, izohlaydi. Oltmishga kirib bildim: *umrim bekorga o‘tmabdi, odamlarga kerakli ekanman, hayotda iz qoldiribman.* (A.Qahhor) *Kurashda bir tabiat qonuni bor: polvon, davrada mag‘lub bo‘lsa, taqdirga tan berib ketmaydi.* (T.Murod) Bildi ota: *foydasizdir qiynamoq.* (Hamza) *Shu fe’l-lari yaxshi: hech kimni birovning oldida behurmat qilmaydilar.* (A.Qahhor) *Hech o‘ylaysanmi: qishloqda shuncha voqealar bo‘lib o‘tdi. Abror qizni darrov tanidi: u qo‘shni mahalladagi do‘konda ishlar edi.* Eh, bu yerning nimasini aytasan: *xayol-dagi jannatning xuddi o‘zi.*

Bir gap ikkinchi bir gapdan anglashilgan ish-harakatning sababini ko‘rsatgan qo‘shma gaplarda. (Bunday gaplarda ikkinchi qism oldidan chunki bog‘lovchisini qo‘yish mum-kin.) *Shoazim o‘ng‘aysizlanib yerga qaradi: hozir uning ko‘ng-liga bahs sig‘mas edi.* (P. Qodirov) *Urilmoq ham foyda: pishiq bo‘lasiz, tajriba hosil qilasiz.* (Oybek) *Traktorist tanqid qilganiga san’atkor asti chiday olmas edi: traktor qayoqda-yu, masalan, „chorzarb qayoqda“, traktorist qayoqda-yu ashulachi qayoqda!* (A.Qahhor) *San’atkor tajang edi: tanaffus vaqtida zalga chiqqan edi, bir traktorchi uni savodsizlikda aybladi.* (A. Qahhor) *Men bu yil dehqonchilikdan hech narsa ololmadim: kuzgi bug‘doyning boshoglari kuyib, qovjirab ketdi.* U ichkariga shoshib kirib ketdi: telefon anchadan beri jiringlayotgan ekan.

Bir gap ikkinchi bir gapdan anglashilgan ish-harakatning natijasini, oqibatini ko‘rsatgan qo‘shma gaplarda. Keyin u yoqqa chopdim-bu yoqqa chopdim: *uch-to‘rt qop sement top-dim.* (Sh.Xolmirzayev) *Istiqlol yillarida bizda Navoiyga munosabat davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi: shoir yangidan qadr topdi, shon-shuhrat shohsupasiga ko‘tarildi.* (E.Ochilov) *Xo‘ja G‘iyosiddin Hirotdagi ba’zi mashhur zotlarni go‘zal taqlid*

qildi: o'tirganlar o'rinalaridan qo'zg'olmay qoldilar. Suv keldi: giyoh bitmas cho'llar obod bo'ldi.

5. Muayyan fikr-mulohaza, hukm, ilmiy ta'rif, qoida kabilarni ifodalovchi gaplardan keyin ularning to'g'riliгини асослаш учун келтирилган мисоллар oldidan ikki nuqta qo'yiladi:

A (a) harfi lablanmagan, til oldi, keng unli tovushni ifodалайди. Bu unli yumshoq o'zakdagi til orqa k, g va boshqa til oldi undoshlari bilan yonma-yon kelganda old qator, ochiq tovush sifatida aytildi: aka, man, olam, kalla, gala kabi.

Qaratqich kelishigi qo'shimchasi yozuvda -ning shaklida ifodalananadi: O'zbekistonning iqtisodi, bilimning kuchi. Bu kelishik ma'nosi jonli nutqda -ni, she'r tilida -n, -im shakllarida ifodalaniши mumkin: U kamni oldiga kirdim. O'zbekiston – Vatanim manim.

Ba'zan bunday hollarda nutq ichida jumladan, masalan, namuna kabi so'zlar keltiriladi. Bunda ikki nuqta ushbu so'zlardan keyin qo'yiladi: O'qituvchilar, jumladan: Soli, Yodgor borishadi.

*Yozuvda undov gapning oxiriga undov belgisi qo'yiladi. **Masalan:** Voy, qomatingdan onang o'rgilsin! (A.Qahhor) Biz morfologiya bo'limida o'rgangan kelishik, egalik, son, zamon va shaxs-son qo'shimchalari, shuningdek, ko'makchi va bog'loychilar sintaksisda so'zlarni o'zaro bog'lash учун xizmat qiladi. Ayrim hollarda gapdagi so'zlar tartib va ohang yordamida ham o'zaro bog'lanadi. **Masalan:** Oq paxtalar ochildi, Teraylik quvnab-quvnab. (Qo'shiq) (8-sinf „Ona tili“ darsligidan)*

*Quyidagi so'zlarga so'z birikmalari bilan ifodalangan ma'nodosh-larni toping. Ular asosida gaplar tuzing. Televizor, maktab, qo'zi, olqor, ayg'ir, kitob. **Namuna:** Olqor – yovvoyi tog' echkisi. Biz kecha tog'da olqorlarni ko'rdik. Kecha biz tog'da yovvoyi tog' echkilarini ko'rdik. (8-sinf „Ona tili“ darsligidan) Berilgan so'z birikmalari juftliklarini birlashtiring.*

1. Yangi asar, qiziqarli asar. 2. O'zbek xalqi, qozoq xalqi. 3. Chiroyli bino, baland bino. 4. O'zbek tili, o'zbek adabiyoti. 5. Xalqimizning urf-odatlari, xalqimizning an'analari. 6. Mustaqillik bayrami, Navro'z bayrami. **Namuna:** Yangi va qiziqarli asar; xalqimizning urf-odatlari va an'analari. (8-sinf „Ona tili“ darsligidan)

6. Reja, mavzu, qaror qilindi kabi so'zlardan so'ng.
Mavzu: „Alisher Navoiyning „Farhod va Shirin“ dostoni“. **Mavzu:** „O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi va buning olamshumul ahamiyati“.

Yuqoridagilar asosida yig'ilish qaror qildi:

I. Jamoaning Navro'z bayramiga tayyorgarlik ishlari qoni-qarli deb topilsin.

II. Navro'z – umumxalq bayramini ko'tarinki ruhda munosib kutib olish uchun yana zaruriy chora-tadbirlar ishlab chiqilsin.

Mavzu: „Mustaqillik deganda men nimani tushunaman?“

Reja:

1. Ozodlik va erk uchun kurashish xalqimizning azaliy xususiyat-laridan biridir.

2. Mustaqillik bayraming qutlug' bo'lsin, ona O'zbekiston!

3. Istiqlol va istiqbol.

7. Uslubiy ravonlikni, muxtasarlikni ta'minlash maqsadida turli xil rasmiy ma'lumotlarda, nashr ishlarida izohlanishi zarur bo'lgan so'zlardan keyin: Toshkentda „Mustaqil O'zbekiston: falsafa va huquqning dolzarb masalalari“ mavzusida uchinchi an'anaviy respublika ilmiy-nazariy konfrensiyasi bo'lib o'tdi. „*Tilshunoslik, adabiyotshunoslik va tarjima nazariyasi:* tadqiq va uzluksiz ta'lim texnologiyalari“ mavzusidagi respublika ilmiy-nazariy va amaliy anjuman materiallari to'plami.

8. Sport musobaqalarida raqiblar o'rta sidagi hisobni ifodalash uchun olingan ochkolar yoki kiritilgan gollarning nisbatini belgilash uchun. Sidneydagi XXVII Yozgi olimpiada o'yinlarida hamyurtimiz Muhammadqodir Abdullayev raqibini

27:21 hisobi bilan yengdi. „Andijon“ va „Paxtakor“ jamoalari o‘rtasidagi o‘yin durang natija bilan tugadi: – 2:2. „Neftchi“ (Farg‘ona) va „Navbahor“ (Namangan) futbol jamoalari o‘rtasidagi uchrashuvda hisob ochilmadi – 0:0.


9. Elektron soatlarda vaqtini ifodalash uchun: 06:30

ESLATMA: matematikada ikki nuqta bo‘luv alomati sanaladi –

$$100:2=50.$$

VIII. TIRE

Tire (fransuzcha tiret – chiziqcha; cho‘ziq narsa) – hozirgi o‘zbek tilida keng qo‘llanadigan, gorizontal chiziqcha (–) shaklidagi tinish belgisi.



Tire rus yozuvida XVIII asrdan qo‘llana boshlagan. Bu tinish belgisini amaliyotga rus yozuvchisi N.M. Karamzin (XVIII asr) kiritgan. O‘zbek yozuvida XIX asrning 70- yillaridan boshlab ishlatila boshlangan. Tire yakka holda qo‘llanganda, gaplar va gap bo‘laklarini ajratish, takror holda ishlatilganda esa, ma’lum bo‘laklarni chegaralash, chegaralangan bo‘lakning ma’nosini ta’kidlash, bo‘rttirish, emotSIONallikni oshirish kabi vazifalarni bajaradi.

Tire o‘zbek tilida quyidagi o‘rinlarda ishlatiladi:

1. Dialoglardagi abzasdan boshlanayotgan har bir gapping boshida personaj nutqidan oldin:

- *Amaki, o‘ylab gapiryapsizmi? Qancha yo‘l yurib kelganimizni bilasizmi?*
- *Bilmayman. Qayerdan kelganingizning menga farqi yo‘q.*
- *Siz tabibmisiz o‘zi?*
- *Odamlar shunaqa deyishadi. Olloh istasa, men bir vositachi bo‘laman-u, dardmandga shifo yetadi. Bo‘lmasa yo‘q.*
- *Nima mening oshnamni davolashni Xudoyingiz istamayotibdimi? – dedi Kesakpolvon g‘ijinib.*
- *Olloh bir meniki emas, barchamizniki, – dedi chol ovozini bir parda ko‘tarib. – Siz nomusulmon odamga o‘xshab so‘zlar ekansiz. (T.Malik)*

Ko‘laga yalingansimon unga yaqin yurib keldi...

– *Kim bu?*

– *Men Kumush!*

Otabek tovush egasini tanidi. Bu majnuna Zaynab edi.

– *Ket mundan!*

— Men Kumush!.. — dedi Zaynab, ammo ketmay iloji qolmadi. Zeroki, dunyodagi eng yaqin kishisi unga „ket!“ amrini bergen edi. (Abdulla Qodiriy)

Bo‘taboy bularni oldinga o‘tkazib orqadan yurdi va Samandarovga yondashib, undan sekin:

- Tinchlikmi? — deb so‘radi.
- Tinchlik, — dedi Samandarov.
- Gazet chiqqani rostmi?
- Rost.
- Endi nima bo‘ladi?

— Nima bo‘lar edi, odamlarning saragi sarakka, puchagi puchakka chiqadi. (Abdulla Qahhor)

2. Uyushiq bo‘laklardan so‘ng kelgan umumlashtiruvchi so‘zdan oldin. Akam, opam, singlim – barchasi meni kutib o‘tirishgan ekan. O‘zbek, qirg‘iz, qozoq, turkman, tojik – bar-chamiz bitta yurtning farzandlarimiz. Paxta, oltin, gaz – bular bizning boyligimiz. Quyosh, havo, suv – hammasi bizning eng qadrli do‘ztimiz. Farzandlarini ham, nevaralarini ham, qo‘shti o‘g‘il-qizlarni ham – barchasini sizlab gapiradi.

3. Ot-kesim va ega orasida quyidagi holatlarda tire qo‘yiladi (ega bilan kesim orasida yozma nutqda tirening ishlatalishi yoki ishlatilmasligi ega bilan kesimning ifodalinishiga bog‘liq):

Ot kesimning kesimlik shakllari maxsus ifodalanmay, ohang yordamida shakllanganda, shu tugallangan ohangni ifodalash uchun ot-kesim va ega orasida tire qo‘yiladi: *Til – millatning qalbi. Yer – don, dehqon – xazinabon. Mehnating – boyliging. Tinchlik – farovon hayot manbayi. Mening aytadigan gapim – shu. Ro‘paradagi bino – maktab. O‘zbekistonning poytaxti – Toshkent. Samarqand – azim shahar. Ijod – dard. O‘qish – hayotni uqish. Bularni amalga oshiradigan – siz. Bunesening ishing. Tilga ixtiyorsizlik – elga e’tiborsizlik. Ukam – o‘quvchi. Taniganim – shular.*

Gapning egasi yoki kesimi yoxud ularning har ikkalasi harakat nomi bilan ifodalanib, kesim tarkibida kesimlik qo'shimchasi yoki bog'lama bo'lmasa egadan keyin tire qo'yiladi: *O'qish – ulg'ayish. Har narsaga qiziqish – biz uchun eski odat. Maqsadim – o'qimoq. Halol yashamoq – xalqqa xizmat qilmoq. Kulish – umrni uzaytirish vositasi.*

Kesim sanoq son bilan ifodalanganda: *Besh karra besh – yigirma besh. Uch karra uch – to'qqiz.*

Ega yoki kesim ko'rsatish olmoshi bilan alohida ajratib ko'rsatilsa, bog'lama yoki kesimlik qo'shimchasi bo'lmasa, egadan keyin tire qo'yiladi: *Bu – mening onam! Ana shu – mening uyim.*

Ega va kesim bu, u, mana bu singari ko'rsatish olmoshlari bilan ajratilganda ham ega, kesim orasida tire ishlatiladi, tire bu so'zlardan oldin qo'yiladi: *Istiqlol – bu o'zbek xalqining azaliy orzusi.*

Tinchlik – bu sevinchdir, hayotda lazzat,

Tinchlik – bu totuvlik, har ishda orom. (A.Umariy)

Gapning egasi yoki kesimi birikmalar bilan ifodalanib, tenglik, o'xshatish kabi ma'nolarni bildirsa va bog'lama bo'lmasa egadan keyin tire qo'yiladi: *Bir hafta – yetti kun. Ona yerim – oltin tuprog'im. Yaxshi qiz – yoqadagi qunduz.*

Eganing ma'nosini ta'kidlab ko'rsatilganda ot kesim tarkibida bog'lama mavjud bo'lsa ham egadan keyin tire qo'yilishi mumkin: *Men – mana shu minglarning biriman. Urush – quyon ovi emas. Sen – bizni ozod etuvchisan. Yulduz – a'lochilarimizdan. Til – millatning boyligi va bebafo mulkidir. Vatanimiz – kelgusida buyuk davlat bo'ladi.*

Quyidagi holatlarda ot kesim va ega orasida tire qo'yilmaydi:

Ot kesimda kesimlik qo'shimchasi yoki bog'lama mavjud bo'lsa: *Akam uchuvchu bo'ladi. Eshitganlarim haqiqat edi. Bu kishi muallimimiz. Bu ishni bajaruvchi sensan. Sog'lik hayot bergen ehson ekan. Har bir bolaning eng muqaddas burchi o'qishdir.*

Ot kesim sifat, son (sanoq sondan tashqari), ravish va ba'zan olmosh turkumiga oid bo'lsa: Vatanimiz go'zal. Bino katta. Qizilqum sahrosi bepoyon. Bu qovun shirin. Ko'ylakning rangi sariq. Bu gul qizil. Hamma yoq top-toza. Bizning sinf sakkizinch. Ona tilidan yuqori baho olgan talabalarning soni yigirma beshta. Dangasaning vaji ko'p. Nega yurishingiz sekin? O'g'limdan umidim ko'p.

Ega bilan ot kesim orasida ham, faqat yuklamalari bo'lsa: Mening bilganim faqat Sunnatullayev. (T.Malik) Bular **ham** a'luchi. Mening opam **ham** talaba. Sharifa **ham** to'quvchi. Olma **ham** meva. Qo'shnilarim **ham** halol odamlar.

Kesim tarkibida yuklama mavjud bo'lsa: Yuragi qalam-u, qog'ozi – keng yer. A'lochilaringiz Salimjonmi?

Ega kishilik olmoshi bilan ifodalangan bo'lsa: Men yurtimning pok istakli kuychisi... (A.Cho'lpon) Sen Lutfiyning so'lim g'azali. (A.Oripov) U tajribali yurist. Men o'quvchiman. **Ammo kishilik olmoshi bilan ifodalangan egani alohida ta'-kidlab ko'rsatish kerak bo'lsa, egadan keyin tire qo'yilishi mumkin:** Sen – yetim emassan. Biz – baxtlar vodiysining farzandlarimiz.

Davr zulmiga va lekin
Bir umr bosh egmading,
Sen – Muqanna, sarbador – sen
Erksevar qon, o'zbegim. (Erkin Vohidov)

Ot kesim kelishik qo'shimchasini olgan bo'lsa: Butun umidimiz sendan. Bu sovg'a senga.

Ega bilan kesim orasida kirish so'zlar ishtirok etsa, ular orasiga tire qo'yilmaydi: Rashk, avvalo, kuchli muhabbat bel-gisi. (E.Vohidov)

4. Ajratilgan bo'laklar har ikki tomonidan vergul yoki tire bilan asosiy bo'laklardan ajratiladi: Soraxon shuncha kundan beri yetolmagan niyatga – Roziyani avvalgiday go'zal, shod ko'rish niyatiga – Sattor bir lahzada yetdi. (Pirimqul Qodirov) Dadam shu atrofdan – qishloqning chiqaverishidan –

do'kon qidirdi. (Abdulla Qahhor) Otam – Ne'mat Aminov, qalbi pok inson edi. Biz – yoshlar – millatning tayanchi, Vatanning ishongan tog'larimiz. Otam – Rustam Jo'rayev – mактабда biologiyadan dars beradi. Rufat Risqiyev – mashhur bokschi – musobaqa to'g'risida gapirib berdi. Bu o'zbek yigit – tanti, mehribon. Shu farzandimni – ko'zim qorasini – elning ardog'ida bo'lishini xohlayman.

Agar ajratilgan bo'lak kengayib, uyushib gap oxirida kelsa, odatda, undan oldin doimo tire qo'yiladi: *Biri aks etadi gullarda, Biri olim – yoqimli, xushfe'l. (H. P.) Sakrab tushdi shunda tuyadan, Karvonboshi – berahm, nodon... Suvori ekansan – zahmating ezgu, Zamona Barchini – mehnatkash, dildor.*

Ajratilgan bo'lak gap orasida kengayib yoki uyushib kelsa ham har ikki yoki bir tomoniga tire qo'yiladi: *Ismi Barlos – sodda, dilovar – ov va qush ilmining piridir. (Oybek) Bulutchalar – oppoq va yengil – pag'a-pag'a suzar osmonda. (S. Sharipova) Sakkiz-to'qqizda butun-butun asarlarni – ilmiy, falsafiy, she'riy – zavqqa berilib o'qir edi. (Oybek)*

Ba'zan ajratilgan bo'laklar faqat bir tomonidan ham vergul yoki tire bilan ajratilishi mumkin: *Komil buvaning uyi shu yong'oqzorning ichida – Bo'rijarning qoq ustida emish. Yangi yil kechasi – nemislar mast-alast bo'lib Rojdestvo bayrami qilayotganida hujumga o'tdik. Endi u rosmana raisga – Umar zakunchiga aylangan edi. (O'tkir Hoshimov) Shoirning kulbayi vayronasi shaharning eng chekkasida, Bog'i Firuz va Bog'i Mahmud kabi ko'rkan bog'lar atrofida joylashgan edi. (Odil Yoqubov) Ovqatdan keyin ayvonda, xontaxta atrofida o'tirib choy ichdik. (O'tkir Hoshimov) Biz Xorazmda, Ma'mun ibn Ma'mun saroyida besh yil birga xizmat qilganmiz, begin. Bog'chadagi do'stimni – Qodirni ko'rib qoldim.*

5. Kirish gaplar har ikki tomonidan vergul yoki tire bilan asosiy bo'laklardan ajratiladi. (Izoh: odatda, tarkibi uncha katta bo'limgan kirish gaplar vergul bilan ajratiladi. Tar-

kibi ancha katta bo‘lgan va gapga umumiy izoh beruvchi kirish gaplar qavsga olinadi yoki tire bilan ajratiladi) Qurbon ota uning suhbatini xushlamasa ham, odamning yuzi issiq – hamsafar bo‘lish to‘g‘risidagi sazasini o‘ldirmadi. (A.Q.) Yo‘lchi, bir shoir – bilmadim So‘fi Olloyormi, shunday deganlar... (Oybek) Ular – o‘shanda qish edi – yo‘lga chiqishdi. Tunov kungi ovchi – men uni o‘rmonda uchratib qoldim – menga qiziq bir voqeani so‘zlab berdi. Samarqanddagi Ulug‘bek rasadxonasida – bir paytlari bu yerdan turib ulug‘ bobomiz osmon ilmini o‘rgangan edi – katta ko‘lamda ta‘mirlash ishlari boshlab yuborildi. Qabulxona – bu yer ilgari katta bir boyning mehmonxonasi bo‘lsa kerak – qorong‘i edi.

6. Ko‘chirma gapdan so‘ng kelgan muallif gapidan oldin:
„Sizga nima bo‘ldi?“ – so‘radi qizcha. „Oddiylik axloqiy barkamollikning bosh shartidir“, – deb yozgan edi L. N. Tolstoy. „Turkcha baxtsizdir. Ming yillardan beri ezila kelmishdir, lekin bitmamishdir. Bitmas, yashamishdir, yashar. Negakim, boydir...“, – deb yozgan edi A. Fitrat ona tilimiz haqida. „Yur, bolam, senga bitta muzqaymoq olib beray!“ – dedi to‘satdan. (Odil Yoqubov) Guli dedi: „G‘azaldin bahr olmag‘ay kim?“ (Uyg‘un) „U bilan internet orqali tanishdim“, – dedi Abror.

7. Bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarda.

Zid ma’noli bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar orasida.
Jismimiz yo‘qolur – o‘chmas nomimiz. (Hamid Olimjon) Said Jalolxon tovush chiqarmay uning yoniga o‘tirdi – u ko‘rmadi. (Abdulla Qahhor) Ko‘z qo‘rkoq – qo‘l botir. (Maqol) Birlashgan o‘zar – birlashmagan to‘zar. (Maqol)

O‘xhatish mazmunidagi bo‘g‘lovchisiz qo‘shma gaplar orasida: Vaqtin ketdi – baxting ketdi. (Maqol) Suv keldi – nur keldi. (Maqol) Qor yog‘di – don yog‘di. (Maqol) Ter to‘kildi – dur yetishtirildi.

Shart va payt mazmunidagi bo‘g‘lovchisiz qo‘shma gaplar orasida: G‘animlar duch kelar – jang bo‘lar puxta.

(Abdulla Oripov) Eshakni yaydoq minib bo‘lmaydi – yiqiladi kishi. (Abdulla Qahhor) Men tirkman – o‘lja bo‘lmaydi otim, Men tirkman – yovga qolmaydi yurtim. (Islom shoir) Qirq to‘rt so‘mdan yigirma yetti so‘mni olib tashladik – o‘n yetti so‘m qoldi. (Cho‘lpon) Qo‘sning tinch – sen tinch. (Maqol) To‘g‘ri bo‘ling – bexavotir bo‘lasiz. (Ertakdan) Rais kirib keldi – majlis ochildi. Qor yog‘di – izlar bosildi. To‘rt mashina o‘g‘it yubordik – fermerlarga vaqtida taqsimlansin.

Bog‘lovchisiz qo‘shma gap qismlari orasida savol-javob munosabati ifodalanganda, shuningdek, faqat birinchi qismi savoldan iborat bo‘lganda, ular orasiga tire qo‘yiladi: Atrofda nima ko‘p – kimyo zavodlari ko‘p. (H.Shayxov) Yetimlik nima – mendan so‘rayver. (Sh.Boshbekov) Xayolidan ne gaplar o‘tdi – yolg‘iz xudoga ayon. (Sh.Boshbekov)

8. Bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarda ikkinchi gapning kesimi tushirilsa, ya’ni ikkinchi gap to‘liqsiz shaklda kelgan holatlarda tushirib qoldirilgan ayrim bo‘laklar o‘rnini qoplaydi: Olamni quyosh yoritadi, insonni – ilm. Yaxshidan ot qolar, yomondan – dod. Oltin o‘tda bilinadi, odam – mehnatda. (Maqol)

9. Kutilmagan voqeа-hodisani ifodalagan gaplardan oldin: Men darrov idoraga yugurdim – yo‘qsiz. Men unga tikilib o‘tiraman-da, rohat qilaman – faqat shu. (Gazetadan) Ahror ovoz egasini tanidi – Hasan naychi edi.

10. Ayrim so‘z yoki gaplar izohlansa, ularning o‘rtasida. O‘zbekiston Milliy sug‘urta kompaniyasi – „O‘zbekinvest“. Veksel – qimmatli qog‘oz, pul qarz olganlik haqidagi tilxat, qarz hujjatidir. O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 137- moddasiga muvofiq quyidagi kunlar bayramlar sifatida dam olish kunlari deb belgilanadi:

- 1- yanvar – Yangi yil;
- 8- mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni;
- 21- mart – Navro‘z bayrami;
- 9- may – Xotira va qadrlash kuni;

1-sentabr – Mustaqillik kuni;

8-dekabr – Konstitutsiya kuni.

11. Ma'lumot mazmunidagi asosiy gapdan so'ng tartib bilan sanalgan har bir gap boshida. 1996- yil 26- aprelda ta'sis etildi:

- „Amir Temur“ ordeni;
- „Buyuk xizmatlari uchun“ ordeni.

1994- yil 5-mayda quyidagilar ta'sis etildi:

- „O'zbekiston Qahramoni“ unvoni va „Oltin Yulduz“ medali;
- „Mustaqillik“ ordeni;
- „Do'stlik“ ordeni;
- „Jasorat“ medali;
- „Shuhrat“ medali.

12. Biron tashkilot, muassasa, shaxs, narsa-hodisalar nomini anglatuvchi so'zlar orasida kelib, tenglik, taqqoslash yoki makon, zamon va miqdor chegaralari („... dan ...gacha“) ma'nosini ko'rsatuvchi so'zlar orasiga: Toshkent – Andijon avtomobil yo'li ta'mirdan chiqarilmoqda. Karpov – Kasparov matchi.

13. Nashr, kitobot ishlarida. X. Sultonov. *Onamning yurti. Qissa va hikoyalar.* – T., G'. G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1987. *Hikmatnoma. O'zbek maqollarining izohli lug'ati.* – T., 1990, 528- bet. N.Jo'rayev. Agar ogoh sen... : Portretga chizgilar: Siyosiy esse. – T., „Sharq“, 1998.

14. ESLATMA: hisob-kitob bilan bog'liq fanlarda tire ayirish, manfiylik belgisini bildiradi. $307 - 23 = 284$. Bugun Toshkentda – 3° C sovuq bo'ladi.

Tire va chiziqcha (defis)

Tire tinish belgisi sifatida chiziqchadan muayyan belgilari bilan farq qiladi. Bu belgilar ko'rinish jihatidan ham farqlanadi. Tire nisbatan kattaroq yoziladi (–) va yuqorida sanalgan holatlarda nutq davomida **tinish uchun** (!) ishlataladi.

Chiziqcha esa **imlo unsuri** sifatida tirega qaraqanda kichik-roq shaklda (- bo‘ladi va ko‘pincha quyidagi holatlarda ishlataladi:

Juft va takroriy so‘z qismlari orasida: ota-on, baland-past, oq-qora, sabzi-piyoz, do‘s-t-dushman, bir-ikki, tez-tez, katta-katta;


Orttirma darajalarni hosil qilishda: qip-qizil, qop-qora, topoza, ko‘m-ko‘k, bo‘m-bo‘sh, to‘ppa-to‘g‘ri;

Qo‘s Shimchalar oldida: -(i)sh, -(i)mtir qo‘s Shimchalari sifatlardagi lug‘aviy shakl yasovchilardir;

-(i)nchi qo‘s Shimchasi o‘rnida: 18- muktab (o‘n sakkizinch muktab) 5- sinf (beshinchi sinf), 7- lampa (yettinchi lampa), 105- guruh (bir yuz beshinchi guruh) kabi vazifalarini bajarish maqsadlarda ishlataladi. (Bu haqda „O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari“ning chiziqcha bilan yozish bandida to‘liqroq ma’lumot berilgan.) Binobarin, chiziqcha tinish belgisi emas.

IX. QAVS

Qavs (arabcha – yoy, egilgan narsa) – o‘zbek tilida keng qo‘llanadigan, ikki elementli (qo‘shaloq), asosan, gap o‘rtasida va oxirida ishlatiladigan chegaralovchi tinish belgisi. Ochiluvchi va yopiluvchi qismlardan iborat.



Qavs () o‘zbek yozuvida XIX asrning oxirgi choragidan boshlab ishlatila boshlangan. Dastlab „Turkiston viloyatining gazetasi“da 1873- yilda ishlatilgan. Keyinchalik boshqa gazeta, jurnal va kitoblarda ham qo‘llana boshlagan. Hozirgi yozuvda asosan ikki xil shaklda ishlatiladi: a) odatdagি qavs () asosiy me’yor hisoblanib, barcha yozuv shakllarida uchraydi; b) o‘rta qavs yoki katta qavs – [] va {} matematika, geometriya, kimyo va boshqa fanlarda, ilmiy adabiyotlarda ishlatiladi. Shuningdek, qavs ichida qavs keladigan holatlar ham uchraydi. Qavsning yopiluvchi, ya’ni ikkinchi qismi ba’zan yozma nutqda ketma-ket keluvchi, sanaluvchi fikrlar, ta’riflarni raqamlashda (raqam yoki harf bilan: 1); 2)) yakka, mustaqil holda ham qo‘llanishi mumkin.

Matematikada bu belgi amallarning bajarilish tartibini belgilash uchun ishlatiladi. Masalan, $(5,2+4,8):0,5$ (oldin qavs ichidagi amal bajariladi).

Qavs o‘zbek tilida quyidagi o‘rinlarda ishlatiladi:

1. Kirish gaplarda. *Shokir sartarosh (tumanda uni hamma taniydi, siz ham tanisangiz kerak) o‘g‘lini uylantirmoqchi bo‘libdi. („Afandi latifalari“dan) Uni tanishsa kerak (Farg‘onada bir-birini tanimaydigan odam kam), bir bola kosada yaxna choy olib chiqdi. (O‘lmas Umarbekov) O‘zbekiston paxta ishlab chiqarish bo‘yicha yetakchi davlatlardan biri hisoblanib (Xitoy, AQSH, Hindiston va Pokistondan keyin beshinchi o‘rinda turadi), eksport bo‘yicha AQSHdan so‘ng ikkinchi o‘rinda turadi.*

Kirish gaplar yoki iboraga oid tinish belgilari qavs ichiga olinadi: *To‘satdan uning xayoliga akasining bundan besh-olti*

oy oldin yozgan xati (o'shandan beri undan dom-darak yo'q!) tushdi. (O.Y.) Mana, bir oydan oshdi, G'aznadan maxfiy elchi Abulvafo Sariq kelib, Ibn Sino hazratlarini topolmay noumid qaytib ketdi hamki, amir har on, har daqiqa G'aznadan sovuq xabar kutib (gunohkor bandangni o'zing kechirgaysen, Xudovandi karim!) betoqat bo'ladi, kechalari mijja qoqmay chiqadi. (O. Y.)

2. Remarka (fransuzcha – belgi, izoh. Dramatik asarda qahramonlar tashqi qiyofasi, yoshi, xulqi, xatti-harakati, sahna manzarasi va boshqalar haqida muallif tomonidan beriladigan izohlar.¹)**lar qavsga olinadi:**

Navoiy (bosiq ovozda) Xo'p shohim.

Xon (yolg'iz). Shu tiriklikdan-da bezdirdilar meni (Turib yuradur). Bir dushmanimning qoni qurimayin yana bittasi chiqib qoladur.

(A.Fitrat)

H a m r o b u v i. Yolg'onmi? Mana! (Xolnisoning hovlisiga o'tadi va uning haydagani esiga tushib darrov qaytadi.) Hoy, Omon, ma o'qi! Pastrog'idan...

O m o n (o'qiydi). „...ketayotgan kunim...“

H a m r o b u v i. Ana! Eshiting!

O m o n. „Sizni yana bitta...“

H a m r o b u v i. Eshiting, eshiting!

O m o n. „Yana bitta, bittagina o'pmaganimga pushaymon-man...“

H a m r o b u v i. Voy sharmanda!.. Bu yoqqa ber! Ber! Ber deyman!.. (Xolnisoning hovlisiga o'tadi, xatni Omonning qo'llidan yilib oladi.) Mana, bunisini o'qichi... pastrog'idan...

O m o n (o'qiydi va qotib-qotib kuladi). Bunisi ham shunaqa...

(A.Qahhor)

¹ O'zbek tilining izohli lug'ati. „O'zbekiston milliy ensiklopediyasi“ Davlat ilmiy nashriyoti. – T.: 2007. – B.375.

M a v l o n o (eshikka qarab). G‘ulom Nabi! G‘ulom Nabi!

G‘ulom Nabi (kelib). Labbay!

*M a v l o n o. Bizning bir ishimiz bor. Ichkariga kishi
qo‘yma!*

G‘ulom Nabi. Xo‘p. (Chgiqar)

(A.Fitrat)

3. Olingan misollar yoki gaplar manbayi qavsga olinadi:

Kuch – adolatda. (Amir Temur) Ilm insonlarning madori, hayoti, rahbari, najotidur. (Abdulla Avloniy) Jannat onalar oyog‘i ostidadur. (Hadisdan) „Qasosli dunyo“. („Avlodlar dovon“ romanidan)

Tabib kosadan barmog‘iga biroz ilashtirib yaladi va darrov tuplab tashladi.

– Zahar ichibdi!

Otabek sapchib turib ketdi, tusi qo‘rqich holga kirgan edi.

– Bekor gap!

Tabib Otabekning hozirgi holatidan dahshatga keldi.
(A.Qodiriy)

4. Ifodalanayotgan fikrga yoki uning biror bo‘lagiga qo‘sishimcha izoh ma’nosidagi so‘z yoki birikmalar, shuning-dek, gazeta va jurnallardagi „davomi bor“, „boshi uchinchi betda“ kabilar ham qavsga olinadi: Nodir (Qudratning akasi) kelib qoldi. Ro‘za hayiti (Iyd al Fitr) va Qurbon hayiti (Iyd al Adha)ning birinchi kuni O‘zbekiston Respublikasi hududida dam olish kuni deb belgilangan. Demokratiya yunoncha so‘z bo‘lib, tarjimada xalq hokimiyyati (demos – xalq, kratos – hokimiyyat) ma’nosini bildiradi. Jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari xalq muhokamaşiga taqdim etiladi, umumiy ovozga (referendumga) qo‘yiladi. Birjaga yetkazib berish vaqt o‘tib ketgan tayyor molni sotish va sotib olish (fotvord) bitimlari, bir qolipdagi mollarni sotish yoki sotib olish (fyuchers) bitimlari hamda kelajakda sotib olish bo‘yicha oldi-sotdi (opsion) bitimlari tuziladi. Dehqon (fermer) xo‘jaliklariga biriktirilgan yer maydoni 10 yil ichida 30 baravariga o‘sdi. Xususiy

tadbirkorlik va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash fondi (Biznesfond)ni tashkil qilish haqida Prezident Farmoni (1995-yil 26-iyul)ni amalga oshirishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda.

5. Shaxs, joy, asar, hodisa va shu kabilarning ikki xil varianti berilsa, ulardan biri qavsga olinadi. „Qutadg'u bilig“ („Baxt keltiruvchi bilim“). Shuhrat (G'ulom Aminjonovich Olimov) atoqli o'zbek yozuvchilaridan biridir. Alisher Navoiyning „Muhokamat ul-lug'atayn“ („Ikki til muhokamasi“) asarida fors-tojik va turkiy tillar bir-biriga solishtiriladi. Abdulla Qodiriy (Julqunboy)ning „O'tkan kunlar“ romani uning o'ziga qo'yilgan boqiy haykaldir. Oybek (Muso Toshmuhammad o'g'li) o'zbek romanchiligini yangi takomil bosqichiga ko'targan adiblardan biridir. Zebi (Zebinisa)ning qish ichi yuragi siqilib zanglab chiqqan ko'ngli bahorning iliq hovuri bilan ochila tushgan... edi. (A.Cho'lpon)


6. Gap ichida qavs yonidagi tinish belgilari (vergul, nuqtali vergul, ikki nuqta, tire) qavsdan keyinga ko'chiriladi: Chavandoz bu gaplarni Ertoyevga aytishni ham, aytmaslikni ham bilmay (aytsa Ertoyev xafa bo'ladi, aytmasa bir joydan chatog'i chiqishi mumkin), boshi qotib ... turganda ... Gulchehra mojarosi chiqsa bo'ladimi? (Odil Yoqubov)

ESLATMA. Qavsdan matematika fanida ham keng foydalaniladi. $(57+38)-17=?$

[] ko'rinishidagi qavsdan foydalanish hollari ham ko'p uchraydi. Masalan, egalik qo'shimchasi qo'shilganda shah [a] ri, o'r [i] ni, sing [i] lisi so'zlaridagi «a», «i» tovushlari qoidaga ko'ra tushiriladi kabi.

X. QO'SHTIRNOQ

Qo'shtirnoq („ „) – o'zbek tilida keng qo'llanadigan, ko'p (to'rt) elementli, qo'shaloq holda ishlataladigan chegaralovchi tinish belgisi. Uning umumiy me'yor hisoblangan grafik shakli „ „ dan iborat bo'lib, uning birinchi qismi ochiluvchi qo'shtirnoq, ikkinchisi esa yopiluvchi qo'shtirnoq deb yuritiladi. Qo'shtirnoq ko'p vazifali tinish belgilaridan bo'lib, muayyan matn qismini chegaralab ko'rsatish bilan birga, uning matn (qo'shtirnoqqa olingan qism kiritilgan umumiy matn)ga sintaktik va intonatsion jihatdan ma'lum darajada bog'lanishini, unga muvofiqlashuvini ham ko'rsatadi. Qo'shtirnoq ma'lum qismning o'zgaligi (chetdan kiritilganligi), uning odatdagagi ma'noda qo'llanmaganligi va boshqalarini ifodalash uchun xizmat qiladi.



Qo'shtirnoqni amaliyotga rus olimi, prof. A.A. Barsov kiritgan. O'zbek yozuvida tinish belgisi sifatida XIX asrning 80-yillaridan boshlab uchraydi. Qo'shtirnoq o'zbek tilida quyidagi o'rnlarda ishlataladi:

1. Ko'chirma gap qo'shtirnoqqa olinadi. „*Ertaga majlis bormi?*“ – so'radi *O'rmonjon*. „*Apil-tapil qilingan ishning umri qisqa*“, – degan edi *Sa'diy Sheroyi*. I. V. Gyote shunday deb aytgan edi: „*Donishmandlik faqat haqiqatdadir*“. „*Er kishiga zeb-u ziynat*, – degan edi *Alisher Navoiy*, – *hikmat va donishdir*“. Konsert odatdagicha „*Navbatdagi nomerimizda...*“ deb boshlanib, „*kelganlaringga rahmat, o'rtoqlar*“ bilan tamom bo'ldi. „*Inson bolalikdan boshlanadi*“, – deydi xalqimiz.

2. Adabiyot va san'at asarlari: badiiy asarlar, gazeta, jurnal, musiqa, spektakl va kartina nomlari qo'shtirnoq ichida beriladi. „*O'tgan kunlar*“ romani, „*Tanovar*“ kuyi, „*Ma'rifat*“ gazetasi, „*Saodat*“ jurnali, „*Jahon adabiyoti*“ jurnali, „*Mening oppoq kabutarlarim*“ spektakli, „*Sohibqiron*“

dramasi, „Amir Temur“ portreti. „Lison ut-tayr“ („Qush tili“) asari haqida suhbatlashdik.

3. Korxona, muassasa, tashkilot, jamoa va shirkat xo‘jaliklari, zavod, fabrika, mehmonxona nomlari qo‘shtirnoq ichida yoziladi: „Saodat“ firmasi, „Navro‘z“ xayriya jamg‘armasi, „Botanika“ sanatoriysi, „Bilayn“ qo‘shma korxonasi, „Kochxolding“ konserni, „Kamolot“ yoshlar ijtimoiy harakati, „Istiqlol“ tennis sport majmuyi, „Diyor“ savdo uyi, „Ekosan“ xalqaro jamg‘armasi, „O‘zavtosanoat“ aksiyadorlik kompaniyasi, „GM–O‘zbekiston“ qo‘shma korxonasi, „O‘zbekiston“ mehmonxonasi.

4. Turli (yer, suv, havodagi) transport vositalarining shartli nomlarini bildirgan so‘zlar, o‘simgiliklarning turini, mahsulotlarning nomini ifodalovchi leksik birliklar qo‘shtirnoqqa olinadi. „Neksiya“ rusumli yengil mashina, „Boing“ samolyoti, „Otayo‘l“ avtobusi. „Bliss“ suvi, „Rayhon“ algalolsiz ichimligi, „Kibo“ oyoq kiyimi, „Hojimatov“ damlamasi.

5. Tarkibida „orden“, „medal“ so‘zlar bo‘lgan, ammo bu so‘zlar bilan sintaktik aloqaga kirishmagan orden va medallar nomi: „Shuhrat“ ordeni, „Matbaa a’lochisi“ nishoni. „El-yurt hurmati“ ordeni 1998- yil 28- avgustda ta’sis etildi. Professor Q. G. Abdullayev „O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan xalq ta’limi xodimi“ faxriy unvoni bilan mukofotlandi.

6. Qonun, farmon, buyruqlarning nomi ayrim bandlari qo‘shtirnoq ichida beriladi.

1995- yilning 6- may kuni „Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida“gi Qonuniga o‘zgartirishlar kiritish haqida“ Qonun qabul qilindi. 1995- yilning 21-dekabrida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IV sessiyasi „Davlat tili haqida“gi Qonunning yangi tahririni qabul qildi.

7. Sinflarning tartibini bildiruvchi harflar, baho ballari („besh“, „to‘rt“ yoki „a’lo“, „yaxshi“) buyruqlar, qarorlarning ayrim bandlariga qo‘shilib yoziladigan harflar qo‘s-

tirnoq ichida beriladi. 6- „A“ sinf, 135- „V“ sonli qaror, 10-moddaning „B“ bandi.

9- „A“ sinfi „Quvnoqlar va zukkolar“ bahsida g‘olib chiqdi. O‘qituvchimiz bugungi javobimga „besh“ baho qo‘ydi.

ESLATMA: Ko‘pchilik hollarda sinf nomlarini 5a, 5^a kabi shakllarda yozilish holatlari ham uchrab turadi. Ammo o‘zbek tilining imlo qoidasiga mos holda 5- „A“ sinf shaklida yozish maqsadga muvofiqdir. Avvalo, bunday so‘zlarda chiziqcha (-inchi) oldingi raqamga qo‘silib va keyinchi (har qanday) so‘zdan ajratib yozilishi lozim. Bu holat so‘zlar orqali bayon qilinganida yana ham aniqroq namoyon bo‘ladi: beshinchi sinf (5- sinf). Sinf nomi sifatida qo‘shtirnoq ichida keltirilayotgan „A“ so‘zini atoqli ot vazifasini bajarayotganligi uchun ham **bosh harf bilan** yozishimiz shart.

8. Ko‘chma ma’noda qo‘llangan so‘zlar, shartli nomni, ishlatalishi odat tusiga kirmagan, eskirgan yo yangi qo‘llanayotgan, kesatiq, piching, kinoya, do‘q-po‘pisa va shu kabi ma’nolarni bildiruvchi leksik birliklar qo‘shtirnoq ichida yoziladi.

Siz aytgan o‘sha „surbet“ mening do‘stim bo‘ladi. „Tog‘ asali“ sotadigan yigit ... dovonning naryog‘iga o‘tib ketgan. ... oradan yana bir necha oy o‘tib, uchinchi marta sud bo‘lgan. Bu safar Botirovning „jinoyati“ o‘n bir yillik qamoq bilan „taqdirlandi“. (Tohir Malik) „Xalq artisti“, beliga o‘q tekkan-day erta-yu kech to‘rdagi karavotga yonboshlab „Teatr“ jurnalini varaqlaydi, xalq artisti bo‘lmoq sirlarini axtaradi, chamasi. (Erkin A’zamov) „Lochin!“ „Lochin!“ „Parvoz“ni eshit! Uning bunday „chiroyli“ qilig‘idan uyalib ketdim.

9. Iqtiboslar qo‘shtirnoq ichida yoziladi.

Buyuk yozuvchimiz A.Qahhorning quyidagi gaplari halihanuz o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q: „Yozuvchi adabiyotga ikki xil kiradi: birinchi asari bilan tutab, biri yashnab kiradi.

Tutab kirgan yozuvchi uzoq tutaydi, ko‘nglidan chiqarib emas, qornidan chiqarib yozadi, Yozuvchilikka cho‘g‘day yashnab kirgan yozuvchi asardan asarga yashnayveradi...“

ESLATMA: Qo‘shtirnoqqa olingan so‘zlarda turlovchi qo‘srimchalar qo‘shtirnoqdan keyin qo‘yiladi: Bularni ko‘rgan Aziz o‘zi haydab kelayotgan „Gaz – 69“ning yurishini tezlatib, yo‘lga chiqdi-da, „Jiguli“ tomonga burildi.

TINISH BELGILARINING QO'SHALOQ HOLDA ISHLATILISHI

Tinish belgilari yakka yoki birikkan holda ishlatiladi. Bu belgi gap mazmuni ohangiga muvofiq holda qo'yiladi. O'zbek yozuvida uslubiy aniqlik, ravonlik hamda turli xil leksik-grammatik ma'nolarni ifodalash uchun tinish belgilarini qo'shaloq qo'llash hollari ham uchrab turadi. Ularning qo'llanilishidagi asosiy o'rinalar quyidagilardan iborat:



ishonmaydi!?

1. So'roq mazmuniga qaraganda his-hayajon kuchli bo'lgan so'roq gaplardan keyin undov va so'roq belgisi birikkan holda (!?) qo'yiladi: Kurashadi ikki to'lqin qarab turaymi!? (Oybek) Eh, qanday chiroyli, so'lim joylar-a!? Go'zallik olamni qutqarishiga kim



2. Kuchli his-hayajon bilan berilgan savolni ifodalaydigan so'roq gaplardan so'ng so'roq va undov belgisi birikkan holda (?!?) qo'yiladi: – Ah! – Xonkeldiyeva turgan yerida surat bo'lib qoldi. – Direktorimiz-a?! (Hamid G'ulom) O'n yil! O'n yildan beri kasal ekanmi?! (A.Q.) Gapisangiz-chi, nima bo'ldi?! (Said Ahmad) Darvoqe, bulbulni tonggacha bedor kuylashga majbur etgan mana shu go'zallik emasmi?! (Hamrobonu) – Siz butun xalqni gadoy, tilanchi qilmoqchimisiz?! – Yo'lchi kinoya, istehzo bilan Abdishukurga tikildi. (Oybek) – Axir, ablah, – derdi Yunus, – birovning uyiga oyog'ingni artmasdan kirgani ibo qilasan, nega havoni bulg'atgani ibo qilmaysan?! (Abdulla Qahhor)



3. Kuchli his-hayajon ifodalangan va mazmunan tugallanmagan gaplardan keyin undov belgisi va ko'p nuqta birikkan holda (...) qo'l-

lanadi: – *Nafisa!.. Nafisaoy!.. – dedi Aziz o'pkasi yumshab, ko'zlariga qaynoq yosh keldi.* (*Hamid G'ulom*) *Men yetim o'sganman, oh, u yetimlik!..* (*G'afur G'ulom*) – *Yulduzlar!.. Mirzo Ulug'bek ko'ngli bir xil bo'lib osmonga tikildi.* (*Odil Yoqubov*) *So'ngra buzuq ovoz bilan zo'rg'a-zo'rg'a: – Bo'g'ma, bo'g'ma meni!.. – deb qichqirdi.* (*Ch*) – *Muncha ham ovozi chiroyli bu qizning!... Ashula aytsa, qulog'ing mast bo'lib, o'ladi odam... Nafasi buncha issiq, muncha mazalik!* *Muncha ta'sirlik!* (*Cho'lpon*) *Meni shu vaqtgacha muxbirlar, yozuvchilar ham tanqid qilgan emas, formalizm, naturalizmlardan o'tdim – hech kim otvod bergani yo'q.* *Otvod berish qayoqda, hech kim meni og'ziga ham olmadi.* *Endi bir traktorist tanqid qilar emish!..* (*Abdulla Qahhor*) *Berkinboy tuyqusdan tilla topganday quvonib-suyunib, turgan joyida dik-dik sakray boshladi:*

– *Topdi-mm!.. Topdi-im!..* (*Sh.Bo'tayev*)

4. Mazmunan tugallanmagan so'roq gaplar-dan so'ng so'roq belgisi va ko'p nuqta birikkan holda (??) ishlataladi: *Bo'yraday joyga sholg'om ekkan odamga ham suvmi?..* (*Oybek*) *Otamning piriday kap-katta sallalik domla o'tiribdilar.* *Qanday qarayman?..* (*Cho'lpon*) *Xon. Nima?.. O'zimi chiqdi?!* (*Fitrat*) *So'rsang, sevinchimdan o'kinchim ko'proq, Kechagi yoshligrim ertakmi endi?..* (*Muhammad Yusuf*) „*Ertaga! – deya xotirjam dilidan o'tkazdi va birdan to'xtadi – xo'sh, ertaga nima bo'ladi?..*“ (*N. Qilichev*)



– *Nima dedingiz? Bularning hammasi men uchun?..*

5. So'roq va undov gaplar kuchli his-hayajon bilan aytilsa, ketma-ket ikkita yoki uchta bir xil belgi qo'yilishi mumkin. *Ey, purviqor tog'lar!* *Nega jimsizlar, nega!!!* (*A.Cho'lpon*)

O'z uyining qabristonlar qadar jimjit, xonaqohlar qadar unsiz, o'z ko'ngli qadar tund va xo'mraygan bo'lishini istagan Razzoq so'fi xuddi shu ola-to'polon ustiga kirib keldi!

Eshikdan kirar-kirmas ovozining boricha:

– *Bu nima qiyomat!!! – deb shovqin solishi ikkita yosh qizni chaqmoq tekkan daraxtdek turgan joylarida qotirib qo'ydi.* (A.Cho'lpon)

– *Nima qilaman bu dorilarni?! – dedi jabrlangan. – Menga sarebralizin kerak!!!* (O'lmas Muhiddin)

6. Muallif gapi va ko'chirma gaplar o'rtasida tinish belgilari ketma-ket ishlatalishi mumkin: „*Adabiyot hunar, uni kasbga aylantirib olgan yozuvchi olmaga tushgan qurtdan farq qilmaydi*“, – deb yozgan edi A. Qahhor.

– *Shayx Sa'diyning hikmatli so'zi bor: „Har bir hurigan itni quva bersang, manzilga qachon yetasan?“*

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. Toshkent: „Sharq“ NMAK, 1999.
2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
3. Abdurahmonov G‘. Punktuatsiya o‘qitish metodikasi. Toshkent, 1968.
4. Mahmudov N., Madvaliyev A., Mahkamov N. Punktuatsiya – fikrni yozma mukammal ifodalash vositasi („O‘zbek tili punktuatsiyasining asosiy qoidalari“ loyihasi). // O‘zbek tili va adabiyoti. 2015. XX-son. B.57-79.
5. Mahmudov N., Madvaliyev A., Mahkamov N. O‘zbek tili punktuatsiyasining asosiy qoidalari. // Ma’rifat. 2015. 1-, 4-, 8-, 11- aprel sonlari.
6. Nazarov K. O‘zbek tili punktuatsiyasi. Toshkent, 1976.
7. To‘rayev Sh. „O‘zbek tili punktuatsiyasining asosiy qoidalari“ haqida mulohazalar. // Ma’rifat. 2015. 1- iyul (№ 52, 8805) B.8-9.
8. Mahmudov N., Nurmonov A. Sobirov A., Nabiyeva D., Mirzaahmedov A. Ona tili. Umumta’lim maktablarining 7- sinfi uchun darslik. Toshkent: Ma’naviyat, 2009.
9. Qodirov M., Ne’matov H., Abduraimova M., Sayfullayeva R. Ona tili. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik. Toshkent: Cho‘lon nomidagi nashriyotmatbaa ijodiy uyi, 2014.
10. Mahmudov N., Nurmonov A. Sobirov A. Ona tili. Umumta’lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik. Toshkent: „Tasvir“ nashriyot uyi, 2006.
11. Abdurahmonov G‘., Rustamov H. Ona tili. 10- sinf uchun darslik. Toshkent: O‘qituvchi, 2004.
12. Anorbekova A., Mirzayeva Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Akademik litseylar uchun ma’ruzalar matni. Toshkent: Noshir, 2011.

13. Nurmonov A., Sobirov A., Qosimova N. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarining 1-bosqich talabalari uchun darslik. Toshkent: Ilm ziyo, 2011.
14. Nurmonov A., Sobirov A., Yusupova Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Akademik litseylarning 2-bosqich talabalari uchun darslik. Toshkent: Ilm ziyo, 2010.
15. Nurmonov A., Mahmudov N., Sobirov A., Yusupova Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarining 3- bosqich talabalari uchun darslik. Toshkent: Ilm ziyo, 2010.
16. To‘xliyev B., Isayeva Sh., Shermurodov T. Adabiyot (majmua). III kitob. Akademik litseylarning uchinchi bosqich o‘quvchilari uchun. Toshkent: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012.
17. Rafiyev A. Ona tili va adabiyot. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik. Toshkent: „Sharq“ NMAK, 2014.
18. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Punktuatsiya>
19. https://uz.wikipedia.org/wiki/Tinish_belgilari

MUNDARIJA

So‘zboshi	3
Nuqta	6
So‘roq belgisi	10
Undov belgisi	12
Ko‘p nuqta	15
Vergul	19
Nuqtali vergul	24
Ikki nuqta	27
Tire	32
Qavs	41
Qo‘shtirnoq	45
Tinish belgilarining qo‘shaloq holda ishlatalishi	49
Foydalanilgan adabiyotlar	52

81.2(O'zb)

O'

O'zbek tilida tinish belgilarining ishlatalishi (uslubiy qo'llanma) / Tuzuvchi Hamza Allambergenov; mas'ul muharrir E.Xo'janiyozov. – Toshkent: MUMTOZ SO'Z, 2016. – 56 b.

UO'K: 811.512.133
KBK 81.2(O'zb)

ISBN 978-9943-4552-7-6

Ilmiy-uslubiy nashr

**O'zbek tilida
Tinish belgilarining ishlatalishi
(uslubiy qo'llanma)**

Tuzuvchi: Hamza ALLAMBERGENOV

Nashriyot muharriri: Mahkam Mahmudov
Musahhiha: Hilola Boltaboyeva
Texnik muharrir: Behzod Boltaboyev

“MUMTOZ SO‘Z”
mas’uliyati cheklangan jamiyatni
nashriyoti

Manzil: Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 69.
Тел.: 241-60-33

Nashriyot litsenziyasi AI № 103. 15.07.2008
Bosishga ruxsat etildi 02.02.2016
Qog‘oz bichimi 60x84 1/32. Ofset qog‘ozi
Times New Roman garniturasi. Hisob-nashriyot tobog‘i 3,5
Shartli bosma tobog‘i 3,60. Adadi 500
Bahosi kelishilgan narxda

“MUMTOZ SO‘Z”
mas’uliyati cheklangan jamiyatining
matbaa bo‘limida chop etildi.
Manzil: Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 69.
Тел.: 241-81-20



ISBN 978 9943-4552-7-6

A standard one-dimensional barcode representing the ISBN 978 9943-4552-7-6.

9 7 8 9 9 4 3 4 5 5 2 7 6